



MUNOSABAT

O'zbekistonning buguni va ertasi, taraqqiyoti va global maydondagi mavqeyi bevosita yoshlar bilan bog'liq. Yoshlar – Yangi O'zbekiston bunyodkorlari sifatida yangi tarix yaratadigan, mamlakat kelajagini belgilaydigan oltin avlod. Shu bois, yoshlarning huquq va manfaatlarini ta'minlash, ularni har tomonlama kamol toptirish davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida doimiy e'tibor markazida turibdi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Ko'ksaroy qarorgohida yoshlar bilan o'tkazgan muloqoti bu yo'nalishdagi ulkan e'tibor va aniq rejalarning yorqin namunasi bo'ldi.

Bugun yoshlarga qaratilayotgan e'tibor va yaratilayotgan imkoniyatlar o'z samarasini bermoqda. O'zbek yoshlari xalqaro maydonda salmoqli yutuqlarga erishmoqda. Jahon fan olimpiadalarida 66 ta oltin, 147 ta kumush, 221 ta bronza medal qo'lga kiritildi. Garvard, Yel, Prinston, Kolumbiya, Kornell kabi dunyoning eng nufuzli oliygohlarida tahsil olayotgan o'zbekistonlik talabalar soni 500 nafardan, "TOP-100" universitetlarida o'qiyotganlar esa 3,5 ming nafardan oshdi. Yoshlar tomonidan yaratilgan 63 ta startap loyihasi AQSH, Janubiy Koreya, Buyuk Britaniya va Birlashgan Arab Amirliklari bozorlariga muvaffaqiyatli kirib bordi. Bugungi kunda yosh tadbirkorlar



mamlakat biznes vakillarining 35 foizini tashkil etib, iqtisodiyot drayveriga aylanmoqda. Yosh sportchilarimiz xalqaro arenalarda 720 ta oltin, 671 ta kumush, 854 ta bronza medalini qo'lga kiritdi.

O'zbekistonning yoshlar bilan bog'liq siyosati nafaqat milliy, balki xalqaro darajada ham faol rivojlanmoqda. Joriy yilda Toshkent shahrida Jahon yoshlarining tinchlik sari harakati bosh qarorgohi tashkil etilishi, Samarqandda Yoshlar par-

lamentlari a'zolarining 12-global konferensiyasi, "Take Off" xalqaro startap sammiti va 46-Butunjahon shaxmat olimpiadasi o'tkazilishi bu maqomni yanada mustahkamlaydi. Bu tadbirlar O'zbekiston yoshlariga xalqaro tajriba almashish, global muammolarni hal etishga hissa qo'shish va o'z salohiyatini namoyon etish uchun keng imkoniyatlar ochadi.

Ayni paytda, har yili katta hayotga minglab yoshlarning kirib kelayotgani davlatimiz oldiga ulkan mas'uliyat

yuklaydi. Mamlakat aholisining o'sishi bilan yil sayin mehnat bozoriga kirib kelayotgan yoshlar soni ham ortib bormoqda. Prezident so'zlariga ko'ra, hozirda bu ko'rsatkich 600 ming bo'lsa, 2030-yilga borib 1 millionga yetishi kutilmoqda. Shu bois, yoshlarga o'z imkoniyati va qiziqishiga mos ish topishi uchun sharoit yaratish eng muhim masalalardan biridir.

(Davomi 2-sahifada.) ➤

FAKT



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Surxondaryo viloyatiga tashrif buyurdi. Safar dasturidan bunyodkorlik ishlari, loyihalar bilan tanishish, yangilarini ishga tushirish, viloyatni kompleks rivojlantirish bo'yicha navbatdagi ustuvor vazifalar yuzasidan yig'ilish o'tkazish o'rin olgan.



Islom olami madaniy merosi bo'yicha qo'mitaning 13-sessiyasi yakuniy xulosalariga ko'ra, O'zbekistonning 7 ta moddiy va nomoddiy madaniy meros obyekti ICESCO ro'yxatiga kiritildi.



Jakarta shahrida qilichbozlik bo'yicha o'tkazilayotgan o'smirlar va yoshlar o'rtasidagi Osiyo chempionatida Alpa-mis O'rakbayev kumush medali, Artur Begjanov bronza medali bilan taqdirlandi.



NAJOT YO'LI



ILM YADROSI

O'zFA S.A.Azimov nomidagi Fizika-texnika instituti direktori Husniddin OLIMOV bilan suhbat

– Xabaringiz bor, muhtaram Prezidentimizning yoshlar bilan doimiy uchrashuv o'tkazishi yaxshi an'anaga aylangan. Kuni kecha Ko'ksaroy qarorgohida bo'lib o'tgan navbatdagi muloqot ham yoshlarning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha yangi imkoniyatlar yaratishi shubhasiz. Olimona nigoh uchrashuvda nimalarni ko'ra oldi?

– Ushbu tarixiy muloqot ajoyib raqamlar bilan boshlandi. Bugun yurtimiz aholisining 22 milliondan ziyodini yoshlar tashkil etar ekan. Dunyoda fuqarolar nufusi yigirma millionga yetmaydigan davlatlar ko'p. Bu juda katta iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy kuchdir. Shuning uchun ham, Prezidentimiz har bir vazir, hokim, oliygoh rektori, texnikum, maktab direktori va boshqa mas'ullarga bu borada jiddiy vazifalarni belgilab berdi.

Uchrashuvda so'nggi yillarda yaratilgan imkoniyatlar natijasida mamlakatimiz yoshlari erishayotgan yutuq va muvaffaqiyatlar e'tirof etildi. Kelgusida bu ko'rsatkichlarni oshirish, galdagi yutuqlarga yo'l ochish, takliflar asosida yangi shart-sharoitlarni yaratish bo'yicha aniq maqsadlar hamda yoshlar manfaati ko'zlangan 32 ta tashabbus ilgari surildi.

(Davomi 2-sahifada.) ➤



BUGUNNING SHE'RI



TINCHLIK KENGASHI

AQSHda bo'lib o'tgan Tinchlik kengashining 1-sammitida O'zbekiston ta'sischi davlat sifatida ishtirok etdi

Yer yuzini sajdagohga tenglashib,
Millatlarni do'st-u yorga mengzashib,
Urush-qirg'in bo'lmasin deb jahonda –
Bong urmoqda bugun Tinchlik kengashi.

Notinch uydan qochar fayz-u baraka,
Noshod elga tatimaydi ma'raka.
Ahdlashuvlar shoyon yetti falakka,
Bong urmoqda bugun Tinchlik kengashi.

Har bandaning Xudo bergan ro'zi bor,
Har bandaning umri-joni, so'zi bor,
Savob-sharrni o'lcharga tarozi bor,
Bong urmoqda bugun Tinchlik kengashi.

Dunyo qalqib turgan bedor zamonda,
O'zbekiston lafzi shudir jahonda:
Tinchlik bo'lsin G'azo degan makonda,
Bong urmoqda bugun Tinchlik kengashi.

Kishanlarni parchalab uz, bo'ldi, bas!
Odam nasli hur tug'ilgan, qul emas!
O'z yurtining egasi bo'l har nafas!
Bong urmoqda bugun Tinchlik kengashi!

Nurulloh OSTON



SPORT OLAMI

SHARHLOVCHI NUKTADON BO'LSA...

Sport jurnalisti va sharhlovchi Davron FAYZIYEV bilan suhbat

– Yurtimizga futbol XX asr boshlarida Qo'qonda "Mus" jamoasining tuzilishi bilan kirib kelgan. Jadidlar va ular bilan bir davrda yashagan ijodkorlar ham futbol bilan faol shug'ullangan. Jumladan, sevimli shoirimiz Usmon Nosir havaskor jamoada to'p tepgani haqida ma'lumotlar uchraydi. Davron aka, suhbatimizni yangi o'zbek futbol haqidagi mulohazalaringizdan boshlasak.

– O'zbek futbolining potentsiali juda ham katta. Ayniqsa, so'nggi yillarda erishgan yutuqlarimizdan keyin jahoniy auditoriyamiz kengaydi. Bundan tashqari, futbolchilarimizga nisbatan ishonch kuchaydi, ushbu sportga investorlarni jalb qilish imkoniyatlari ortdi. Hozirgi kunda yirik kompaniyalar O'zbekiston futbol assotsiatsiyasi (O'FA), Professional

futbol ligasi (PFL) bilan hamkorlik qilyapti va bundan ikki tomon ham manfaatdor bo'lyapti. Bu futbolni faqat davlat ko'magida emas, balki investitsiyalar evaziga yanada tez fursatda rivojlantirishi mumkin.

Ko'pchilikda yangilish fikr bor: go'yo futbol jamoalari bor bo'yicha og'irligini byudjetga tashlab olgan. Aslida, har bitta assotsiatsiya, federatsiyani FIFA ham, OFK ham qo'llab-quvvatlaydi. Qolaversa, homiyalar jalb qilinadi va aynan so'nggi besh-olti yil ichida O'FAda bu tizim yaxshi yo'lga qo'yildi. Agar jamoa g'alabalari davomli bo'lsa, marketing tomonlama ham rivojlanish bo'ladi, e'tibor ham oshadi. Bu esa o'z-o'zidan bo'lmaydi.

(Davomi 3-sahifada.) ➤



SHU SONDA:

“TUG'ILGAN YER UCHUN HURMAT YAXSHIROQ”

(5-sahifada o'qing.) ➤



SANA

Sizni sog'indim,



Zulfiya opa

Umr o'tib bormoqda. Umr o'tgan sari odam bosib o'tgan yo'llarini, boshdan kechirgan yillarini tez-tez eslab turar ekan. Inson bosib o'tgan yillar va yo'llar – nimadir ular? Masofami, vaqtmi yo boshqa narsami? Menimcha, ular umring davomida senga ro'para kelgan, hayotingda iz qoldirgan odamlar – do'stlar, qarindoshlar, ustozlar, safdoshlar. Afsuski, ulardan ancha-munchalari allaqachon shoir Shayxzoda ta'biri bilan aytganda, “hechiston” mamlakatiga rixlat qilishgan, lekin ularning ruhi poklari tirik, bot-bot huzurimga kelib turishadi, gurunglashamiz, dardlashamiz, maslahatlar quramiz.

Vaqt o'tgan sari ularning o'рни bilinadi, ko'plarining siymosi yanada tiniqlashadi, yuzlari, ko'zlaridagi nur o'tkirlashadi. Bunday eslashlar, bunday xotirotlar hamisha kishiga ruh beradi, bardam qiladi, mamnuniyat bag'ishlaydi. Hayot yo'llarimda shunday ulug' zotlarga ro'para kelgan ekanman, ular bilan

hamsuhbat, hamfikir, hamdard bo'lgan ekanman, demak, umrim unchalik ham behuda o'tmapti.

Bugun tongda Zulfiya opani esladim. Naqadar olijanob, naqadar nuroniy ayol edilar.

(Davomi 4-sahifada.) ➤



Boshlanishi 1-sahifada.

Yoshlar o'rtasida o'tkazilgan so'rovnoma ko'ra, ularning uchdan biri tadbirkor bo'lish istagini bildirgan. Bu esa yoshlarning nafaqat ish qidiruvchi, balki ish o'rinlari yaratuvchi kuchga aylanayotganidan dalolat beradi. Davlatning tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash siyosati, imtiyozli kreditlar, biznes inkubatorlar va konsalting xizmatlari yoshlarning bu intilishini ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi.

O'tgan yili yoshlar bandligini ta'minlash maqsadida banklar va Yoshlar ishlari agentligiga 400 million dollar yo'naltirilgan natijasida "Yoshlar biznesi" va "Kelajakka qadam" dasturlari hisobidan 15 ming nafar yosh o'z tadbirkorligini yo'lga qo'yib, 50 ming kishini ish bilan ta'minladi. Bu muvaffaqiyatlar zaminida davlatning yoshlarga bo'lgan ishonchi va amaliy ko'magi yotibdi.

Mazkur ishlarining mantiqiy davomi sifatida, yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash uchun qo'shimcha 200 million dollar ajratilishi e'lon qilindi. Moliyalashtirish imkoniyatlari yanada kengaytirilib, bir qator yangiliklar joriy etilmoqda. Birinchidan, o'zini o'zi band qilgan yoshlar uchun kredit miqdori 100 million so'mdan 300 million so'mgacha oshiriladi. Ikkinchidan, yosh tadbirkorlarning loyihalari uchun 10 milliard so'mgacha kredit ajratish imkoniyati yaratiladi. Uchinchidan, innovatsion startap loyihalariga 100 ming dollargacha investitsiya kiritishga ruxsat beriladi. To'rtinchidan, servis va umumiy oqvatlanish sohasida mingdan ziyod ish o'rni yaratgan mahalliy brendlardan franshiza olib, filial ochishga qiziqqan



yoshlar uchun qulay moliyalashtirish paketlari joriy qilinadi.

Joriy yildan e'tiboran "Kelajak tadbirkori" dasturi ishga tushirilib, yosh tadbirkorlarga 7 yil muddatgacha 15 foizli kredit ajratish yo'lga qo'yiladi. Dastur doirasida o'zini o'zi band qilgan yoshlarga garovsiz 20 million so'mgacha, tadbirkorlik ko'nikmasiga ega bo'lib biznes boshlayotganlarga 300 million so'mgacha, faoliyatini kengaytirmoqchi bo'lganlarga 2 milliard so'mgacha, kamida 5 nafar bitiruvchini ishga olgan tadbirkorlarga esa 10 milliard so'mgacha kredit ajratish kabi imtiyozlar belgilanayotgani jamiyatda kamba'g'allik darajasini yanada kamaytirishga xizmat qiladi.

Tadbirkorlikni endi boshlayotgan yoshlarning 30 foizi biznes ko'nikmasi yetishmasligi sabab qiyinchilikka uchrayotganini inobat-

ga olib, har bir hududda "Yoshlar biznes inkubatori" tashkil etiladi. Nufuzli xorijiy oliygohlarning ilg'or tajribalari asosida yoshlarni tadbirkorlikka o'qitishda hamkorlik qilindi va kamida 40 ming yoshni biznesga o'rgatadigan "Yangi avlod tadbirkorlari" dasturi boshlanadi.

Dasturni muvaffaqiyatli tugatgan eng yaxshi ming nafar yoshning loyihasiga uch yil muddatga 200 million so'mgacha 7 foizli ssuda beriladi.

Har yili "Yosh tadbirkorlar" tanlovi o'tkazilib, eng yaxshi 100 ta loyihani brendga aylantirish uchun "Yoshlar venchurs" jam'armasidan 1 milliard so'mgacha mablag' ajratiladi.

"Fikringni ber (Voice Up)" inklyuziv oromgohi tajribasi kengaytirilib, uni har bir hududda o'tkazish va ming nafar yoshni qamrab olish, eng yaxshi tashabbuslar ishtirokida Samarqandda Xalqaro

inklyuziv yoshlar oromgohini tashkil etish vazifasi belgilandi. "O'sish va rivojlanish (Upshift)" loyihasi doirasida media, dizayn, hunarmandchilik, ishlab chiqarish va innovatsiya yo'nalishlarida tanlov o'tkazilib, eng yaxshi 40 ta startapni moliyalashtirish uchun 2 milliard so'm ajratiladi.

Texnikumlarda ta'lim dasturlarini ish beruvchilar talabi asosida yangilash, dual ta'lim qamrovini kengaytirish va moddiy-texnik bazani yaxshilash bo'yicha ham muhim vazifalar belgilandi. Texnikumlarga ham oliygohlar kabi "spin-off" ochishga ruxsat berilib, o'quvchilarning startap loyihalariga 1 milliard so'mgacha ajratiladi. Joriy yildan texnikum o'quvchilari uchun ham "Ishla va sayohat qil (Work and travel)" dasturi asosida 6 oy xorijda ishlab, qo'shimcha daromad topish imkoniyati yaratiladi, ishtirokchilarga yo'kira xarajatlari

uchun ssuda ajratiladi.

Ko'rsatilayotgan bu e'tibor va ko'makdan maqsad aniq. Farzandlari bilimli, iste'dodli, o'zining kuchi va salohiyatiga ishonib, doimo oldinga intilib yashaydigan xalq va davlatning istiqboli, albatta, yorug' bo'ladi.

O'zbekistonda yoshlar siyosati borasida olib borilayotgan keng ko'lami ishlar dunyo miqyosida tan olinayotganini ham aytib o'tish joiz. 2023-yili Yoshlar taraqqiyoti indeksiga ko'ra, O'zbekiston yoshlar siyosati sohasida eng tez rivojlanayotgan mamlakatlardan biri, deb e'tirof etilgani ham shundan dalolat. Shuningdek, BMT tomonidan "Yoshlar strategiyasi – 2030"ni namunaviy tarzda amalga oshirish bo'yicha tanlab olingan 10 ta mamlakatdan biri aynan O'zbekistondir. 2022-yilda Buxoro shahri – Turkiy dunyo yoshlari

poytaxti, 2024-yilda esa Toshkent – MDH mintaqasida birinchi yoshlar poytaxti deb e'lon qilindi. O'sha yili mamlakatimizda ilk bor o'tkazilgan Butunjahon yoshlar festivali ham O'zbekistonga bo'lgan yuksak e'tibor namunasini, desak, to'g'ri bo'ladi.

Bugungi kunda mamlakatimizning rivojlanish strategiyasi yoshlarning innovatsion salohiyatini oshirish va ularni raqamli iqtisodiyotning asosiy drayveriga aylantirishga qaratilgan. Bu yo'nalishdagi eng muhim tashabbuslardan biri – Prezidentning texnologiyalar bo'yicha mukofoti tanlovidir. 2023-yilda umumiy mukofot jam'armasi 1 million AQSH dollarini tashkil etgan ushbu tanlov O'zbekistonning innovatsion yutuqlari tarixida yangi sahifa ochdi. Tanlov sun'iy intellekt, MicroSaaS va AdTech, ijtimoiy va moliyaviy texnologiyalari, o'yin dasturlari hamda xakaton kabi muhim yo'nalishlardagi loyihalarni qo'llab-quvvatlaydi. Qisqa vaqt ichida ishtirokchilar soni 4 mingdan 6 ming nafargacha oshgani yoshlar orasida innovatsiyalarga bo'lgan qiziqishning yuqori ekanini yaqqol ko'rsatmoqda.

Bir so'z bilan aytganda, O'zbekistonda yoshlarga qaratilayotgan yuksak e'tibor mamlakatimizda dinamik, raqobatdosh va global bog'langan kelajakni shakllantirmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning yoshlar bilan o'tkazgan navbatdagi uchrashuvida belgilangan muhim chora-tadbirlar O'zbekiston yoshlari uchun barcha soha va yo'nalishlarda yanada keng imkoniyatlar eshigini ochishi shubhasiz.

Jamoliddin BADALOV

Boshlanishi 1-sahifada.

Bular tadbirkorlik, startap, ta'lim, xorijiy tillar, ijtimoiy himoya, volontyorlik, yosh oilalarni qo'llab-quvvatlash, kitobxonlik sohaslarini qamrab oladi.

Gap tadbirkorlik haqida boradimi, ijtimoiy himoya haqidami, har bir tashabbus negizida ilm-murafatga chorlov turganiga guvoh bo'ldik. Yoshlarga oid davlat siyosatining amalga oshirilishida olim va ziyolilar ham hissa qo'shadi. Bizning ilmiy muassasamizda ham yoshlar ulushi katta va ular bilan ishlash rahbariyatga katta burch va mas'uliyat yuklaydi.

– So'zlaringizdan shoirning "Oh, sening yoshliging menda bo'lsaydi", degan havasli satrlari dilingizdan o'tganini sezish qiyin emas. Keling, mavzudan uzoqlashmagan holda, yoshligingiz, yadro fizikasi sohasiga kirib kelishingiz haqida suhbatlashsak.

– Bu fanga qiziqish bolaligimda, yadro fizikasi bo'yicha olim bo'lgan dadam sababli uyg'ongan. U kishi meni bir necha bor o'zi faoliyat yuritgan Fizika-texnika institutining yuqori energiyalar fizikasi laboratoriyasiga olib borgan. Ilmiy muhit, laboratoriya sharoiti, olimlarning izlanishlari menda katta taassurot qoldirgan.

Tabiati va texnikadagi jarayonlarning qonuniyatlarini tushuntirib beradigan fundamental fan bo'lgan fizikani maktab davridayoq chuqur o'rganishga qaror qilganman. Ayniqsa, yadro fizikasi materiyaning tuzilishi va xossalari eng kichik – yadrolar, protonlar, neytronlar va ularning tarkibidagi elementar zarralar, ya'ni kvarklar miqyosida o'rganishi bilan nihoyatda sirli va jozibali ko'ringan. Ushbu zarralar o'rtasidagi kuchli yadroviy ta'sir qonuniyatlarini anglash menga katta ilmiy qiziqish bag'ishladi.

Yadro fizikasi yadroviy to'qnashuvlarda yadrolarning boshqa yadrolarga aylanishi, ularning parchalanishi, shuningdek, yulduzlarda kechadigan termoyadroviy reaksiyalarda yengil yadrolarning birikib, og'irroq yadrolarni hosil qilishi kabi jarayonlarni o'rganadi. Masalan, atom elektr stansiyalarida elektr quvvati uran yadrolarining neytronlar bilan to'qnashuvi natijasida parchalanishidan ajralib chiqqan ulkan energiya hisobidan olinadi. Quyosh energiyasi ham markazida kechadigan termoyadroviy reaksiyalari – protonlarning geli yadrolariga aylanishi natijasida hosil bo'ladi.

– Ayni paytda qanday ilmiy loyihalar ustida ishlaysiz? Bugungi faoliyatingizning asosiy yo'nalishlari qaysi?

– Hozirda shogirdlarim bilan Shveysariyadagi Katta adron kollayderidagi yuqori energiyali og'ir yadrolar to'qnashuvlariga oid katta hajmdagi eksperimental ma'lumotlarni fizikaviy tahlil qilish bilan shug'ullanmoqdamiz. Faoliyatimiz Innovatsion rivojlanish agentligi

tomonidan moliyalashtirilmoqda. Ushbu mablag'lar hisobidan institutimizning Yuqori energiyalar fizikasi laboratoriyasida yuqori tezlikda ishlaydigan, kuchli hisoblash quvvatiga ega zamonaviy hisoblash klasteri tashkil etildi. Bu orqali murakkab nazariy modellar va hisob-kitoblarni onlayn amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'ldik.

Tadqiqotlarimiz yuqori energiyali yadroviy to'qnashuvlar natijasida hosil bo'ladigan o'ta issiq va zich materiya, xususan, kvark-glyuon plazmaning termodinamik va gidrodinamik xususiyatlarini o'rganishga qaratilgan. Ilmiy natijalar nufuzli xorijiy jurnallarda chop etilmoqda. Hozirga qadar xalqaro darajadagi manbalarda 109 ta ilmiy maqolam e'lon qilindi.



Ilmiy faoliyatim davomida Germaniya-niing Bonn universiteti hamda Polakistondagi COMSATS universitetida 8 yil tadqiqot olib bordim. Shu bilan birga, professor sifatida talabalarga yadro fizikasi va hisoblash fizikasi fanlaridan ma'ruzalar o'qidim.

Ilmiy rahbarligim ostida 4 nafar shogirdim yuqori energiyali yadro fizikasi sohasida PhD dissertatsiyalarini muvaffaqiyatli himoya qilgan. Ayni paytda esa 3 nafar bazaviy doktorant rahbarligimda ilmiy tadqiqot ishlarini olib bormoqda.

Yuqori energiyali yadro fizikasi sohasida Xitoy, Rossiya, Qozog'iston, Pokiston va Braziliya olimlari bilan xalqaro hamkorlik yo'lga qo'yilgan. Bu mamlakatimiz ilm-fani nufuzining oshishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, yosh olimlar va doktorantlar uchun ilg'or ilmiy bilim, amaliy ko'nikma va xalqaro tajriba o'tirish imkoniyatini yaratadi.

– Fizika-texnika instituti hayotida yangiliklar bormi? Qanday ilmiy yo'nalishlar va loyihalar ustida ish olib borilmoqda?

– Hozirda institutimizning 7 ta ilmiy laboratoriyasida davlat byujeti hamda Innovatsion rivojlanish agentligi tomonidan moliyalashtirilayotgan loyihalar doirasida ilmiy-

amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, 4 ta fundamental, 4 ta amaliy, 1 ta innovatsion va 1 ta O'zbekiston-Belarus qo'shma xalqaro loyihasi amalga oshirilmoqda.

Tadqiqotlar asosan uchta ustuvor yo'nalishni qamrab oladi: yarimo'tkazgichlar fizikasi, qayta tiklanuvchi energiya manbalari va yuqori energiyali yadro fizikasi.

Institutda buyurtmalar asosida quvvati 40 Vtdan 4 kVtgacha bo'lgan kremniyli quyosh panellari asosidagi fotoelektrik qurilmalar ishlab chiqilmoqda. Shuningdek, havo, tuproq va suvda radioaktiv radon konsentratsiyasini onlayn rejimda o'lchaydigan milliy radonometr uskunalari yaratildi. 2021-yilda institut tarixida ilk bor mazkur radonometrga "O'zdavstandart"

ILM YADROSINI

agentligi sertifikatini olindi. Hozirga qadar 12 ta radonometr ishlab chiqarilib, Navoiy va Olmaliq kon-metallurgiya kombinatlariga yetkazib berildi. 2022-yilda institutning "Quyosh va issiqlik energetik qurilmalari" laboratoriyasi olimlari tomonidan Katta quyosh pechida termokimyoviy usulda vodorod yoqilg'isi olishga mo'ljallangan reaktorning tajribaviy nusxasi yaratildi. Ushbu ishlanma "InnoWeek-2022" ko'rgazmasida "Eng yaxshi texnikaviy ixtiro" deb e'tirof etilgan.

So'nggi uch yilda Innovatsion rivojlanish agentligi jam'armasi mablag'lari hisobidan institut laboratoriyalari umumiy qiymati qariyb 1 million AQSH dollariga teng bo'lgan zamonaviy ilmiy asbob-uskunalar bilan jihozlandi. Jumladan, kichik va katta Quyosh simulyatorlari, skanerlovchi elektron mikroskop, mikropayvand uskunasini, Xoll effektini o'lchash asbobi hamda magnetron purkash uskunasini xarid qilindi.

2025-yilda institut olimlari 350 million so'mlik xo'jalik shartnomalari doirasida Navoiy va Olmaliq kon-metallurgiya kombinatlarining yangi konlaridan olingan namunalarini skanerlovchi elektron mikroskop orqali tahlil qilib, ularning strukturasi va element tarkibini aniqlab beriladi.

2016-yilga nisbatan 2025-yilda institutning davlat byujeti hisobidan moliyalashtirish hajmi taxminan to'rt barobarga oshdi. Ilmiy xodimlarning oylik maoshlari ham o'tacha to'rt barobarga ko'paydi. Shuningdek, PhD va DSc ilmiy darajasiga ega xodimlarga ilmiy natijadorlikka qarab mos ravishda 30 va 60 foizgacha ustamalar to'lanmoqda. Natijada 2025-yilda institut olimlari tomonidan "Web of Science" va "Scopus" bazalarida indeksatsiyalangan jurnallarda chop etilgan maqolalar soni 2016-yilga nisbatan qariyb to'rt barobarga oshdi.

Ayni paytda 25 nafar ilmiy xodimimiz mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalarida fizika va texnika sohasiga oid fanlardan

adabiyotlarni muntazam o'qib borishi, xalqaro jurnallarda chop etilayotgan eng so'nggi ilmiy natijalardan doimiy ravishda xabardor bo'lib borishlari talab etiladi. Zamonaviy ilm tez sur'atlar bilan rivojlanmoqda, shuning uchun global ilmiy axborot makonidan uzilib qolmaslik muhim ahamiyat kasb etadi.

– Bu borada, albatta, ustozlarning o'zi namuna ko'rsatayotgani shubhasiz. Bugun yadro fizikasi bo'yicha jahon olimlari qanday ilmiy muammolar ustida bosh qotirmoqda?

– Sohada hozirgi kunda bir nechta fundamental va amaliy ahamiyatga ega dolzarb muammolar mavjud.

Birinchidan, kvarklarning nima sababdan erkin holda mavjud bo'la olmasligi va ularning proton hamda neytronlar tarkibida qanday tarzda bog'lanishi masalasi to'liq va mukammal tushuntirib berilmagan. Bu muammo kvant xromodinamikasi doirasida o'rganiladi va kuchli o'zaro ta'sir tabiatini chuqur anglash bilan bog'liq fundamental vazifa hisoblanadi.

Ikkinchidan, o'ta og'ir elementlar sintezi muhim yo'nalishlardan biridir. Xususan, atom raqami 119 va undan yuqori bo'lgan yangi elementlarni yaratish orqali Mendelyev davriy jadvalini yanada kengaytirish yadro fizikasining muhim ilmiy maqsadlaridan biri bo'lib qolmoqda.

Yana bir yirik muammo – boshqariladigan termoyadroviy sintezni amalga oshirish bilan bog'liq. Ya'ni, yulduzlar, jumladan, Quyosh markazida kechadigan termoyadroviy reaksiyalarni yer sharoitida barqaror va xavfsiz energiya manbaiga aylantirish uchun zarur fizik va texnologik muammolarni hal qilish talab etiladi. Shuningdek, koinotdagi nukleosintez jarayonlarini o'rganish ham muhim ahamiyatga ega. Masalan, neytron yulduzlarining birlashishi paytida og'ir kimyoviy elementlar qanday hosil bo'lishi masalasi zamonaviy astrofizika va yadro fizikasi kesishgan nuqtadagi dolzarb mavzulardan biridir.

Amaliyot nuqtai nazaridan esa ilg'or va xavfsiz yadro reaktorlarini yaratish, yadro chiqindilarini samarali qayta ishlash hamda tibbiyotda yadro texnologiyalaridan kengroq foydalanish kabi vazifalar ham dolzarbligicha qolmoqda.

– Suhbat davomida Siz rahbarlik qilayotgan muassasa yildan-yilga jahonga bo'yashib, unda global loyihalarni amalga oshirish bosqichma-bosqich yo'lga qo'yilganidan xabardor bo'ldik. O'ylaymizki, sanab o'tilgan murakkab masalalar yechimida o'zbekistonlik olimlar ham munosib hissa qo'shadi. Bu yo'lida Siz va shogirdlaringizga sabr-toqat, kuch-quvvat va omad tilab qolamiz!

Vasila HABIBULLAYEVA suhbatlashadi.



Boshlanishi 1-sahifada.

Davlatimiz rahbari tomonidan futbolga misli ko'rilmagani e'tibor qaratilmoqda. Yuqori Chirchiq tumanida Milliy futbol markazi barpo etildi, murabbiylar malakasi, bolalar futbol, viloyatlardagi akademiyalar faoliyati qayta ko'rib chiqildi va yangi bosqichga ko'tarildi.

Xalqaro munosabatlar yaxshi tomonga o'zgardi. FIFA prezidenti Janni Infantino bir necha bor yurtimizga tashrif buyurdi. Tariximizda ilk bor FIFA maqomidagi turnir – futzal bo'yicha jahon chempionatini o'zimizda o'tkazdik. Infantino aytdiki, bu tarixdagi eng yaxshi mundial bo'ldi.

Mana, keyingi bosqich – U-20 jahon chempionati. Buning nufuzi bo'yicha ikkinchi o'rinda turadigan turniri. Bu ishonch. Infantinoning bitta gapi yoqdi bizga: “Biz loyihalarni taqdim etamiz va bir yildan keyin kelib ko'ramiz, qani, loyiha qanchalik ishlab ketdi. O'zbekistonga har gal qaysidir loyihani topshirganimizdan keyin kelganimizda, ortig'i bilan bajarilgan bo'ladi”. Ya'ni, O'zbekiston FIFA ko'z o'ngida ishonchli hamkorga aylandi. “2027-yilgi futbol bo'yicha U-20 jahon chempionatiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish chora-tadbirlari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori imzolanishi ham ushbu fikrning yorqin isbotidir.

– **Futbolni to'psiz, o'yinni sharhsiz tasavvur qila olmaymiz. Axbor imomxo'jayev, Davlat Turdaliyev, Mirzahakim To'xtamirzayev va boshqa ustozlar o'zbek futbol sharhlovchilari maktabini yaratdi. Bugun Siz va hamkasblaringiz an'anani davom ettiryapsiz. Izingizdan yangi avlod ham sportga kirib kelyapti. Yosh sharhlovchilar haqida nima deya olasiz?**



– Men yosh sharhlovchilarning imkoniyatlarini yuqori baholayman. Misol uchun, Hasan Turdaliyev, Orif Tolipov kabi shogirdlarimiz muxlislar mehriini qozonmoqda. O'ziga yarasha auditoriyasi bor, faol ijod qilishyapti, katta o'yinlarni yuqori darajada sharhlab borishyapti.

Salohiyat ko'tarilishi uchun vaqt kerak. Ustozlarimiz: “Sharhlovchi to'liq shakllanishi uchun kamida besh yil ketadi. Shunda ham bu davrda tinimsiz mehnat qilib, o'zini shu sohaga bag'ishlasagina”, deb aytardi. Bu qo'shimcha mashg'ulot emas. Jarayonda katta auditoriya bilan ishlanaadi, uzluksiz improvizatsiya talab etiladi. Shuning uchun yosh ijodkor diqqatini aynan sport jurnalistikasiga qaratasa, ilm orqali sharhlovchilikka kirib kelsa va tanqidga toqatli, kamchiliklarini bartaraf etish xususiyatiga ega bo'lsa, besh yildan keyin odamlar uning ovozin, fikrlarini qabul qilishni boshlaydi.

Burungi va bugungi sharhlarda farq katta. Ustozlar: “Bizning davrimiz qiyinroq edi. Chunki Internet yo'q edi, ma'lumotlarni gazetalaridan olardik”, deyishadi. Bitta jonli efir uchun sharhlovchi haftalab tayyorlangan. Shunga yarasha, ularning sharhlni butun mamlakat eshitgan. U paytlar ommaviy axborot vositalari ichida televideniyeining mavqeyi eng baland darajada bo'lgan. U sharoitda ishlab turib, yuqori natija qayd etgan ijodkorlarni har qancha e'tirof etsak arziydi.

Yetishib chiqayotgan yosh avlod uchun esa zamonaviy axborot texnologiyalarining ijobiy va salbiy tomonini ko'ryapmiz. Hozir sharhlovchining qo'lida mavjud ma'lumot muxlisda ham bor. Demak, tomoshabinni hayron qoldirish, mehriini qozonish qiyinlashdi. Tanilish oson, ammo auditoriyani ushlab qolish, raqobatga dosh berish qiyin. Chunki tanlov katta, juda keng auditoriyaga internet orqali media mahsulotlarini iste'mol qiladi, kuzatib boradi. Bunaqa sharoitda televideniyeada futbol sharhlab turib, media olamida katta nomga, obro'ga ega bo'lish qiyinlashadi. Sharhlovchining fikrini qabul qilishga toqat pasaydi. Gaplari odamlar badiga urmasligi uchun sharhlovchi juda ham aniq gapirishi, nuqtadon bo'lishi kerak.

– **O'zbekiston milliy terma jamoasi xalqimiz uzoq kutgan orzusini ro'yobga chiqarib, Jahon chempionatining yo'llanmasini qo'lga kiritdi. Endi natija kutsak bo'ladimi?**

– Endi maqsad – jahon chempionatida munosib qatnashish, Osiyo kubogini qo'lga kiritish. Jahon bilan birga qit'ani keltirishim bejiz emas. Biz Osiyo kubogini yutmaganmiz. Osiyo o'yinlarini yutganmiz, lekin u boshqa masala.

2025-yilda chet ellik jurnalistlarning o'zbek futbolini yoritish sohasida katta to'liq ko'tarildi. O'zbekiston jahon futbol e'tiboriga tushdi, futbolchilarimizga qiziqish ortdi. Bu orqali ko'p mamlakatlar o'zi uchun O'zbekistonni qayta kashf qildi. Kuzatsangiz, qo'shni davlatlarning ko'rsatuvlari, podkastlarida ko'pincha o'zbek futbolni muhokama qilishadi. Yevropada “o'zbek futbolchi”, “o'zbekistonlik sportchi” degan brend shakllandi. Eldor Shomurodov, Abduqodir Husanov kabi yoshlarda ishonchli, mehnatkash, kamtar, intizomli futbolchi obrazi ko'rinyapti.

– **Bu borada muxlislar qo'llab-quvvatlovining ham o'rni bo'lsa kerak...**

– Albatta! Busiz iloji yo'q. Muxlislik yangi darajaga chiqdi. Andijon fan-klubining faoliyati boshqa klublarni ham jonlantirib yubordi. Samarqand, Namangan, Farg'onadagi stadionlarda biz muxlislar nafaqat faollashgani yoki ko'payganini, balki ular tartib bilan muxlislik qilayotganiga guvoh bo'lyapmiz. O'yin payti aytiladigan qo'shiqlari, performans, bir xil forma, plakatlarni, hammasi sinxron bo'lyapti.

Biz shunaqa davrlarni o'tkazdikki, umuman, efir yo'q, hafta davomida futbol sharhlamagan paytlarimiz bo'ldi. Translyatsiyalarni faqat rasman sotib olish sharti qo'yilganidan keyin hammasi birdaniga to'xtab qoldi. Chunki bizning kanallar

katta mablag'lar yo'naltirib, xalqaro translyatsiyalarni olishga tayyor emas edi. Sharhlovchi sifatida ijodimiz to'xtab qolgandi. Qiyin paytlar edi... Hozir futbolimiz ham, sharhlovchilik malakamiz ham ko'tarilishda.

– **Efirbagi eng qiyin vaziyat siz uchun qaysi?**

– Qiyinchilik asosan terma jamoamiz o'ynaganda bo'ladi. Deylik, qaysidir o'yinga, turnirga ketdik, men ikki-uch hafta shu jamoa bilan yashadim, tayyorgarlik ko'rdim, ularning ichki kechinmalarini kuzatdim, har bir futbolchining shaxsiyatini o'rgandim. Ichki dunyosini bilaman, muammosini bilaman, yurish-turishini, hammasini bilaman-da, o'sha kayfiyatning hammasini yig'ib turib, stadionga kiraman. Agar o'shanda futbolchining harakati o'xshamasa, jamoamiz yomon o'yin ko'rsatsa, mag'lubiyatga uchrasa, xuddi o'zim o'ynab yutqazgandek bo'lardim.

– **Yaxshi sharh nimalarni o'z ichiga oladi: hissiyot, bilim yoki muvozanat?**

– Sanaganlaringizning uyg'unligi bilan yaxshi sharh hosil bo'ladi. Bittasi zo'r bo'lib, bittasi kam bo'lsa ham, sharh sust chiqadi. Faqat bilimdan kelib chiqib ma'lumot berib o'tirsangiz, statistikaga aylanib qoladi, bu auditoriyani zeriktiradi. Faqat emotsiyaga berilsangiz, odamlarni charchatib qo'yasiz. Muvozanat buzilib ketsa, sharh sifati tushib ketadi.

– **Shu o'rinda sharhda ajnabiy so'zlar ishlatilishiga qanday qaraysiz?**

– Bu yerda chegarani aniqlab olish kerak. Dunyo qabul qilgan xalqaro atamalar bor. Buni muxlislar oddiy hayotda ham qo'llaydi. Atamalarni zamonaviy futbol asoschilari – inglizlar o'ylab topgan, asrlar davomida saqlanib kelib, rivojlangan. Ularni istasak-istamasak, biz ham qulaymiz.

Fikr izohlashda adabiy tildan foydalanishimiz shart. Buni inkor etib bo'lmaydi. Lekin futboldagi ba'zi vaziyatlarga ta'rif berishda xalqaro atamalar qo'l keladi. Ular muqobil, sinonim yoki yanada aniq ifodalab beruvchi vosita sifatida kelishi kerak sharhda. Masalan, ofsayd deymiz. Agar “o'yindan tashqari holat” desak, bu bir necha soniya vaqt oladi. Futbolda lahzalar katta rol o'ynaydi. Fikringizni o'sha onda aytishga ulgurmasangiz, keyingi epizod boshlanib ketadi, kech qolasiz. Bunaqa iboralar 30-40 ta, almashtirib-almashtirib, muqobil sifatida ishlatamiz.

Agar bu borada hurmatli olimlar, ijodkorlar, ziyolilar ko'maklashsa, o'zbekcha ifoda uslublari va ayni holatga mos so'zlarni topib, muomalaga kiritishda yordam bersa, xursand bo'lar edik.

– **Futbol sharhida tanqid va hurmat chegarasi qanday bo'lishi kerak?**

– Yuz foiz hurmat chegarasi bo'lishi kerak. Tanqidning ham o'rni bor, faqat bilim va xolislikka tayanilsa.

Sharhlovchi subyektiv yondashuvni bayroq qilib olishi noto'g'ri. Deylik, jamoa yirik hisobda yutqazdi, uning mag'lubiyatini tahlil asosida tanqid qilish mumkin. Lekin ikki futbolchi ishtirokidagi bahsli epizodda hakamning qarorini hurmat qilish kerak. Bu bitta misol. His-tuyg'ularga erk berib, o'zgalar emotsiyasi bilan o'ynashish kerak emas. Haqoratga o'tish har qanday vaziyatda bizga to'g'ri kelmaydi.

Shuningdek, sharhlovchi muxlislik madaniyatini rivojlantirishga yordam berishi mumkin yoki aksincha.

– **O'zbek futbolining kelajagi haqida fikrlaringizni bilmoqchi edik.**

– Birinchi navbatda jahon chempionatini yaxshi o'tkazib olish kerak. Raqiblar jiddiy. Portugaliya hamda Kolumbiya qit'alarida eng kuchli jamoalardan. Uchinchi jamoa mart oyida aniqlanadi. Bunda Yamayka bilan Kongoning imkoniyati yuqori baholalanayapti. Guruhdan muvaffaqiyat bilan chiqish uchun kurashishimiz kerak. Shuning uchun Fabio Kannavaro – jahon chempionatidagi tajribasiga ega bo'lgan mutaxassis taklif etildi. Qiyin bo'lgan taqdirda ham, kuchimiz yetadi.

Qolaversa, o'zimizni autsayder his qilishimiz kerak emas. Oldin kuchli jamoalardan qo'rqardik, hozir unaqa narsa yo'q. Mana, Misr bilan ham yaxshi o'yin ko'rsatildi, Urugvay bilan ham ancha yaxshi o'ynaldi. Undan oldin ham kuchli terma jamoalar bilan g'alabalar qayd etildi. O'zimizning qiyin raqiblar bo'lardi, deylik, Eron. Ularni ham yengib o'tdik. O'ylaymanki, hozirgi tarkibimizda hech qanday hayqiqish yo'q, hatto Portugaliyadan ham. To'g'ri, guruhimiz favoriti va o'yin darajasi nuqtayi nazaridan bizdan ustun turishi mumkin. Biroq biz to'g'ri taktika tanlashimiz kerak.

Eng muhim o'yin – birinchi uchrashuv. Kolumbiyaga qarshi start biz uchun jahon chempionati debutyuti. Raqib esa so'nggi paytlarda Argentinani, Braziliyani yutgan salohiyatli jamoa. Unga qarshi munosib o'yin ko'rsata olsak, u yog'iga cho'chish bo'lmaydi, o'ylashimcha.


Biz, albatta, guruhdan chiqamiz deb umid qilaman. Mabodo chiqolmasak, baribir, munosib o'yin ko'rsatish kerak. Jamoa sochilib ketmasligi asosiy vazifalardan biri. Men bu jamoani ichidan bilaman, futbolchilarning imkoniyatini bilaman, ruhiyatini bilaman. O'ylaymanki, bardam turishadi.

– **Biz ham yuksak g'alabalarga, eng muhimi, o'ziga bo'lgan ishonch tantanasiga tilakdoshmiz. Samimiy suhbat va nekbir kuzatuvlar uchun rahmat! Oliy darajadagi o'yinlarda yurtimiz g'alabasini baland pardalarda e'lon qilish baxtini tilaymiz! Sizning ham mushtariylarga tilaklaringiz bo'lsa, marhamat...**

– Suhbatga taklif etganingiz uchun tashakkur! Imkoniyatdan foydalanib, yurtdoshlarimizni, futbol muxlislarini muborak Ramazon oyi bilan tabriklayman! Ezgu duolar ijobat bo'lsin!

Suhbatdosh:
Zarnigori IBROHIMOVA

TAQVIM



YUZ YILLIK QURULTOY

Bundan rosa yuz yil muqaddam turkiy dunyo olimlari birinchi turkologiya qurultoyini o'tkazish uchun Bokuda jam bo'ldi.

Bu tarixiy anjuman Ozarbayjon poytaxtida 1926-yil 26-fevraldan 6-mart-gacha bo'lib o'tadi. 131 nafar delegat ishtirok etgan, to'qqiz kun davom etgan anjumanda 17 ta majlis o'tkazilib, 38 ta ma'ruza tinglanadi. Unda turkiy tillarning alifbo va til masalalariga oid yetti yirik muammo muhokama qilinadi.

Qurultoy munosabati bilan buyuk Alisher Navoiy tavalludining 500 yiliginii tantanalii nishonlash uchun o'n kishilik komissiya tuziladi. Bu tarixiy tadbirga ham keng miqyosda tayyorgarlik ishlari olib boriladi. Alisher Navoiyning “Vaqiya”, “Munshaot” asarlari, “Mir Alisher Navoiy” nomli maqolalar to'plami hamda Sulton Husayn Boyqaroning “Devon”i nashr etiladi. Tabiiyki, qurultoyga qadar ham Alisher Navoiy hayoti va ijodi xususida Ozarbayjonning vaqtli va ilmiy nashrlarida Ismoil Hikmat, Ali Nozim, Mirza Muhsin Ibrohim, Salmon Mumtoz, Bekir Cho'banzoda kabi olimlarning maqolalari bosilgan edi.

Boku qurultoyi oldidan O'zbekistonda ham bu anjumanga hozirlik ko'rish va Alisher Navoiy yubileyini o'tkazish masalalari muhokama qilinadi. Jumladan, jadid munaqqidi Vadud Mahmud “Yer yuzi” jurnalining 1925-yil 3-sonida bosilgan “Navoiy uchun” maqolasida yozadi: “Navoiyni tanimag'on bir o'zbek bo'lmasa kerak. Eskilarimiz va eski maktablirimiz g'azallari bilan, yangilarimiz va yangi maktablarimiz suratlarini va shaxsiyatini bilan tanishdirlar... Navoiy turk tilini tigrizgan va chig'atoy adabiyoti degan bir adabiy maktabning bu kungacha yashamog'ig'a sabab bo'lg'on bir kishidir. Shuning uchun uni tanimoq, uni taqdir etmoq butun turklar uchun bir vazifadir. Mana shu holni nazarga olib, bu kun turk dunyosining har yerida – Turkiyada, Ozarbayjonda va bizda uni eslab yillik to'yini o'tkazmak istaydirlar”.

Muallif yubileyga tayyorgarlik haqida ham ma'lumot beradi: “Balki 1926-yil fevral oyida bo'ladurg'on qurultoy turk dunyosining buyuk shoiri va til mutaxassisi Navoiyning 500 yilligiga to'g'ri kelib qolg'onidan Bakuda katta bir tantana berilsa kerak. Turk olimlaridan Ko'pruluzoda Fuod va Cho'banzoda o'rtoqlar bu to'g'rida fikrlarini yozib o'tdilar. O'zbekistonda ham bu yubiley fevral so'nglarida, mart boshlarida o'tkazilsa kerak; buning uchun katta hozirlik ko'rilmog'dadir”.

Turkiy jumhuriyatlar Boku qurultoyiga hozirlik ko'rayotgan bir pallada o'zbek matbuotida ham bu anjumanga tegishli xabarlar, rejalar bosilib turadi. Vadud Mahmud “Til va harf masalalari” (“Maorif va o'qituvchi” jurnali, 1925-yil 5-6-son) maqolasida shunday fikrlarni yozadi: “Bu kun turk dunyosining eng muhim masalalaridan biri har yerda ko'tarilmakda bo'lg'on til va harf masalalaridir”. Muallif turkiy tillarning umumiy yozuviga doir qarashlarni dastlab Ismoilbek

G'asprali o'rta tashlagani va XX asrning 20-yillarida bu tashabbus bilan “Turk-totor ilmiy sarfi”, “Turk-totor lisoniyatiga madhal” o'tli ilmiy narsalar egasi Qrim dorulfununi mudarrisi do'qtur Cho'bonzoda” mashg'ul ekanini eslab o'tadi.

Vadud Mahmud yana yozadi: “Mashhur pro'fessur S.Samoylovich ham shu fikrdadir. Bu fikr tarafdorlari turk millatining madaniyatiga kirish uchun “til birligi”ni eng birinchi omil deb biladi. Pro'fessur Samoylovich Leningrad sharq dorilfununida, Cho'bonzoda Qrim va Qafqosda oliy maktab talabalariga shu fikrni talqin etmaktadirlar. Bu masalalar oliy, ilmiy ixtisos muassasalarida jiddiy suratda tekshirilmakga boshlang'ondir”.

Til va harf masalalari tahlili va talqiniga munosabat bildirgan Vadud Mahmud masalani Boku qurultoyiga bog'lab yozadi: “Ilova o'laroq shunida bildiraylikki, Bokuda yig'ilmoqchi bo'lg'on butun dunyo turkshunoslar qurultoyi shu masalalarning ko'tarish natijasidir va bunda bizning shu yechilmagan tugunlarimiz hal qilinsa kerak. Agarda bu qurultoy bizning ehtiyojimizni tuzuk tushunib, amalga oshirishi mumkin bo'lg'on foydali yo'llar ko'rsatsa, bizning madaniy hayotimiz uchun birinchi “yordamchi” mohiyatini qozong'on bo'ladir”.

Keyinchalik Vadud Mahmud “Turkiyot qurultoyi” degan alohida maqola ham yozadi. Ma'naviy olamda millatning o'z asliyatini saqlash ehtiyoji “g'arbiyot”, “rusiyot”, “sharqiyot” singari tushunchalarni yuzaga chiqargan. Shularga o'xshash Vadud Mahmudning yozishicha, turkiyot, turkologiya tushunchalari “turkni tanimoq ilmi” ma'nosini anglatadi.

“Turkiyot ilmi g'arbda va bizda boshqa-boshqa ehtiyoqlar orqali tug'ildi. G'arb millatlari ilmga xizmat uchun, balki bizdan istifoda etmak va bizni yaxshiroq-osonroq idora etmak uchun ish boshladilar. Biz esak o'zimizning kimligimizni bilmak va boshqalar orasida mavqeyimizni bilmak uchun kirishdik; bizning bu ishimiz ikki jihatlidir: bir yoqdan bilimga xizmatdir, ikkinchi yoqdan o'zimizni bilmakdir.

Har ilmini ilgari surish uchun mutaxassislarning bir-birovlari bilan munosabatda bo'lishlari, xabarlashib turishlari ko'b yordam beradir, bu kungi turkshunoslar bir-birovlari-ning ishlari bilan tanishmoq va kelgusi ishlarining planlarini chizmak istaganlaridan birinchi o'laroq bir turkist qurultoyi chaqirishga qaror bergandir” (Vadud Mahmud. “Turkiyot qurultoyi” maqolasi, “Maorif va o'qituvchi” jurnali, 1925-yil, 11-son).

Turkiy dunyo olimlarining o'zaro hamkorligi masalasi uchun Boku qurultoyi alohida qiymat kasb etishi tabiiy edi. Turk dunyosi olimlari va turkiyot bilan shug'ullanadigan mutaxassislar bu qurultoyda til va adabiyot tarixi, din va madaniyat tarixi to'g'risida ma'ruzalar qilishi rejalashtiriladi.

Qurultoyga vakillar yuborish masalasi ham mahalliy ziyolilarning yig'ilishlarida ko'rib chiqiladi. Qurultoyda O'zbekiston Ilmiy Kengashi raisi Abdurashid Abduljabborov rahbarligida uning o'rinbosari G'ozzi Olim Yunusov, samarqandlik jurnalist Rahim In'omov, Toshkentdan tilshunoslar Mashriq Yunus o'g'li Elbek

va Shokirjon Rahimiy, Farg'onadan tilshunos, jurnalist Ashurali Zohiriy, xorazmlik tilshunos Bekjon Rahmonov, Buxorodan tilshunos Ismoil Sadriy va boshqalar qatnashadi.

Shokirjon Rahimiyning anjumanidan keyingi hisobot ma'ruzasida aytilishicha, qurultoyda Mo'joriston, Olmoniya, Turkiya mamlakatlaridan olimlar qatnashgan, jumladan, akademik Bartold, professor Montal, akademik Oldinburg, professor Muhammad Fuod Ko'pruluzoda, Samoylovich, Malov, Bekir Cho'banzoda kabi turkologlar qiziqarli ma'ruzalari bilan bir necha martalab minbarga ko'tariladi (Shokirjon Rahimiy. “Turkiyot qurultoyining yakunlari”. “Qizil O'zbekiston”, 1926, 14-may). Rejaga muvofiq, lotin imlosiga o'tishning tamal toshi ana shu anjumanda qo'yiladi.

1926-yili Bokuda nashr qilingan “Mir Alisher Navoiy” nomli maqolalar to'plami muqaddimasida shunday fikrlar bayon qilingan edi: “XV asrdagi turkiy tili adabiyotning eng muhim siymalaridan biri Navoiy ekanini qayd etib, kitobchada chop etilgan ilmiy ishlarda uning shaxsiyati va adabiy faoliyati yuz sahifadan ortiq hajmda keng tarzda tadqiq etildi”.

Qurultoy arafasida Sulton Husayn Boyqaroning “Devon”i ham Bokuda nashrdan chiqadi. Kitobga Ismoil Hikmat va Bekir Cho'banzodaning “Husayn Boyqaro: hayoti va ijodi” hamda “Husayn Boyqaro “Devon”i” nomli maqolalari kiritilgan edi.

Bekir Cho'banzoda Husayn Boyqaroning “Devon”ini nashrga tayyorlar ekan, o'zbek adabiyotining taniqli namoyandalaridan biri Abduratif Fitratdan olingan manbadan foydalangani haqida “So'zboshi”da qayd etib, shunday yozadi: “Bu nusxa o'zbek shoir va adiblaridan bo'lgan Fitratning kutubxonasidagi nusxadan bizning iltimosimizga ko'ra ko'chirilgan. Fitrat do'stimizda ko'rgan qo'lyozma nusxa yozuv jihatidan juda ochiq va chiroyli bo'lsa-da, undan tayyorlangan nusxa juda ibtidoiy yozuv bilan ko'chirilgan. Bunga sabab bizning shoshilganimiz bo'lsa kerak. Har holda, juda katta mehnat qilib biz uchun bu nusxani ko'chirtirib bergan Fitrat do'stga “Rahmat, sog' bo'li!” deyish bizning burchimizdir”.

Qurultoy turkiy tillarga doir masalalar muhokamasi, adabiy-ilmiy aloqalar rivoji, muhimi, Alisher Navoiy hayoti va ijodini birgalikda o'rganish hamda ommalashtirish uchun ham ulkan qiymatga ega edi.

Darvoqe, Boku qurultoyidan keyin lotin yozuviga o'tish harakati tobora ommaviylasha bordi. Loyihalar e'lon qilindi, milliy jumhuriyatlarning har biri o'zlarida bu yozuvga o'tish masalasini muhokama qildi, anjumanlar uyushtirdi. Maxsus rasmiy qarorlar chiqarish, vaqtni belgilab, shart qo'yish davri ham yaqinlashib qoldi. 1929-yili turkiy jumhuriyatlarning ko'pchiligi, jumladan, O'zbekiston lotin imlosiga o'tdi.

Boku qurultoyi munosabati bilan turkiy dunyo olimlari tomonidan hazrat Alisher Navoiy hayoti va ijodini hamkorlikda atrofiicha tadqiq etish an'anasi bugun ham davom etayotgani quvonarlidir.

Almaz Ulvi BINNATOVA,
Bahodir KARIM



Boshlanishi 1-sahifada.

Sizni sog‘indim, Zulfiya opa

O‘ylab qarasam, Zulfiya opa o‘zining she‘rlari bilan, iboli va hayoli fe‘l-atvori bilan, pokiza e‘tiqodlari-yu, zukko fikrlari bilan mening hayotimda katta o‘rin olgan, ma‘naviy dunyomning katta bir qismini tashkil qilgan inson bo‘lgan ekan.

U kishi shunday ulug‘ sifat ayol edilarki, har gal ro‘para kelganimda darrov hushyor tortar, kiyim-kechaklarimni to‘g‘rilar, qadalmay qolgan tugmalarimni qadar, sochlarimni (ha, ha, sochlarimni – bir zamonlar bu taqir bosh ustida qop-qora qalam sochlar ham bo‘lar edi) tekislab olardim – xullas, u kishining ko‘ziga har jihatdan orasta bo‘lib ko‘rinishga tirishardim. Men Zulfiyaning nomini urush yillaridayoq eshitgan, uning “Hijron” degan she‘riy to‘plamini, “Uni Farhod der edilar” degan dostonini yuq olib, ko‘p joylarda o‘qib yurardim. Yaqinroqdan tanishish keyinroq nasib qildi.

1962-yilda Qozog‘istonda o‘zbek adabiyoti dekadasi bo‘ldi. Dekadaga men ham bordim. Samolyotda Zulfiya opa bilan yonma-yon o‘tirib qoldik. Har xil mavzularda gurgunlashib, yo‘lining tanobini tortib bordik. Gap orasida Zulfiya opa yarim hazil, yarim chin ma‘nosida birdan so‘rab qoldilar:

– Ozodjon, nega siz mening she‘rlarim to‘g‘risida hech narsa yozmaysiz? Yoki yoqmaydimi?

Men duduqlanib nimalardir deb javob berdim, lekin o‘ylanib qoldim – darvoqe, nima uchun shu paytga qadar Zulfiya opa haqida hech narsa yozmadim? Yaxshi ijodni payqamasang, quvonib targ‘ib qilmasang, sening tanqidchiliging qayoqqa boradi? Shoshma, sen Zulfiya she‘rlarini o‘qigansan, albatta, lekin ularni uqqanmisan, bu she‘rlar orqali shoirning qanday inson ekanini bilib olganmisan? Ochig‘ini aytganda, o‘sha dekada men uchun Zulfiyani ham kashf qilish dekadasi bo‘ldi.

Aeroportga ko‘nishimiz bilan qozoq do‘stlarimiz bizni quchoq ochib kutib olishdi – allaqachon Sobit Muqanov G‘afur G‘ulomni quchoqlab olib, unga nimalarnidir uqtiriyapti. G‘afur aka chust do‘ppisini yarimta kiyib olib, Sobit o‘g‘aga sof qozoq tilida bir narsalar deyapti. Sochlari oppoq oqargan, novcha bo‘yli Abdulla Tojiboyev hassasini sarmab, Mirmetmiring tevaragida girdikapalak. Tavba, men qozoq va o‘zbek yozuvchilarining inoqligi, ijodiy hamkorligi to‘g‘risida ko‘p eshitgan edim-u, bunaqa samimiyni, bunaqa yaqinlikni kutmagan edim.

Men mashinaga Zulfiya opa bilan birga o‘tirdim. Bizga Tursunxon Abdurahmonova degan qozoq shoirasi hamroh bo‘ldi. Tursunxon bu yil sakson yoshga to‘lar ekan. Umri uzoq bo‘lsin, yuzga kirsin. Lekin men bu shoiraning saksonga kirganini hech tasavvur qilolmayman. U ochiq chehrali, xushsuvar, o‘ta dilbar bir ayol sifatida esda qolgandi. Zulfiya opani bilar ekan, bir zumda quvnoq gurgung boshlandi. Tursunxon yaxshi she‘rlar yozish bilan birga juda chiroqli qo‘shiqlar ham aytar ekan. Manzilga yetib borgunimizcha, uch-to‘rtta ajoyib o‘lanni qoralab tashladi.

Qozog‘iston diyorida ko‘p uchrashuvlar bo‘ldi, har uchrashuvda Zulfiyaning nomi

alohida tilga olinar, undan she‘r o‘qib berishini talab qilishardi. Qozoqlarning bizning shoiramizga muhabbati shu qadar cho‘ng ekanki, bir-ikki joyda u favqulodda o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ldi. Safar davomida biz ko‘kchatovga bordik. Benihoya go‘zal maskan ekan. Chiroyli qarag‘ayzorlar tevarak-atrofga muattar hidlar taratadi. Yengil tuman ichida elas-elas ko‘rinayotgan tog‘lar havoda muallaq turgana o‘xshaydi. Lekin ko‘kchatovning dovrug‘i tog‘lari-yu, o‘rmonlarida emas, ko‘llarida ekan. Bir viloyatning o‘zida katta-kichik saksonta ko‘l. Suvlari tiniq, bamisoli ko‘zguga o‘xshaydi. Unda sohildagi daraxtlar ham, tip-tiniq osmon ham aks etib, o‘zgacha joziba kasb etgan. Ayniqsa, Oynako‘lning go‘zalligi har qanday ta‘rifdan yuqori. Qirg‘oqqa yaqinroq joyda suv ichidan kattagina qoyatosh chiqib turipti. Bu

o‘zi bilan gaplashib, uni dengizga o‘xshagan ulkan ko‘l bo‘yiga olib ketishipti. She‘rxonlik bo‘lipti. Qo‘shiqlar kuylashipti. Baliqxo‘rluk qilishipti. Xullas, to‘yib diydorlashipti. Baliqchilar ko‘p mashaqqatlar chekib, shoiraga sovg‘a qilish uchun ikki metr keladigan osetra baliq‘ini ushlab qo‘yishgan ekan. Boyagi chiptaga o‘ralgan uzun narsa osetra baliq‘i ekan. Bilmadim, keyin baliq nima bo‘ldi – Toshkentga olib kelishdimi yo o‘sha yerda qolib ketdimi? Lekin buning ahamiyati yo‘q edi. Muhimi, qozoq mehnatkashlari shoiraga bo‘lgan hurmat-ehtimomini ifodalashning g‘oyat insoniy va original yo‘lini topishgan edi.

O‘shanda qozoq do‘stlarimizning Zulfiyaga munosabatini ko‘rib xijolat tortib ketdim – shoiraning dovrug‘i shunchalik bo‘lsa-yu, tanqidchilar u tomonga bir qiyo boqmasa?



tosh darhol suv parilarini eslatdi – bunaqa go‘zal ko‘lda, ko‘ldan-da go‘zal suv parilari, bo‘lsa ne ajab. Eng qiziq voqea biroz keyin – tushlik vaqtida ro‘y berdi. Tushlik she‘rxonlikka, she‘rxonlik qo‘shiqqa ulanib ketdi. Gurung avji qizib turgan bir paytda qozoq shoiralaridan biri turib, Zulfiyaga bag‘ishlagan she‘rini o‘qib berdi. Unda shoir boyagi ta‘rif ketgan Oynako‘l‘ni Zulfiyaga tortiq qilgan edi. Garchi bu sovg‘a ramziy bo‘lsa-da, Oynako‘l‘ni ko‘tarib ketishning iloji bo‘lmasa-da, hammamizni juda xursand qildi.

Bir-ikki kundan keyin Balxashga bordik. Kunduzgi uchrashuvlardan keyin biroz dam olib, oqshomgi adabiy kechaga jo‘nashimiz kerak edi. Birdan Zulfiya opa g‘oyib bo‘lib qoldilar. U kishining qayerda ekanini hech kim bilmaydi. Mezbonlarimiz esa miyig‘larida sirli kulib, “xavotir olmanglar, kelib qoladilar” deb bizni tinchitgan bo‘lishdi. Darhaqiqat, qorong‘i tushganda Zulfiya opa kirib keldilar – u kishining yonida chipta qopga o‘ralgan uzun narsa ko‘tarib olgan uchta odam bor edi. Ma‘lum bo‘lishicha, ular Balxash baliqchilari ekan. Zulfiya opa bilan uchrashuvga ko‘pdan beri mushtoq ekanlar. Shoiraning Balxashga kelishini eshitib, shoiraning

Keyin O‘zbekistonda ham Zulfiyaning ijodiy kechalarida ko‘p qatnashdim. Yaypanda, Popda, Marg‘ilonda, Toshkentda. Qo‘qondagi bir uchrashuv ham g‘oyatda maroqli bo‘lgan edi. Qo‘qonliklar shoiraga siyohdon sovg‘a qilishdi. “Bu Nodirabegimning siyohdoni. Nodirabegim sizga qalamini ham meros qoldirgan. Siz Nodirai davronsiz. Nodira aytolmay ketgan qo‘shiqlar sizning qalamingizdan to‘kilsin”, deya lutf qilishdi. Zulfiya opaning dovrug‘i butun jahon bo‘ylab taralgan edi. Qaysin Quliyev, David Kug‘ultinov, Mustay Karim kabi ulkan san‘atkorlar uning yaqin do‘sti edi. U xalqaro “Nilufar” va Neru nomidagi mukofotlarning sohibasi bo‘lgandi. Lekin mukofot-u unvonlar orasida bitta unvon bor ediki, bu bilan Zulfiya opa alohida mag‘rurlanardi. U O‘zbekiston xalq shoirasi edi. Shuning uchun bo‘lsa kerak, “Baxtim shul, o‘zbekning Zulfiyasiman” deya xitob qilgandi. Men, albatta, Zulfiya opa haqida yozdim, uning to‘g‘risida bir adabiy portret yaratdim, yangi she‘riy kitoblarga taqriz yozdim, maqolalarda uning to‘g‘risida mulohazalar yuritdim. Lekin aytimgo‘im kerakki, mening yozganlarim bu ulkan shoiraning ijodi oldida uruvog‘ ham bo‘lolmaydi. Men uning nafosatini, go‘zalligini, fikriy boyligini

ko‘ngildagidek, o‘sha she‘riyatga munosib tarzda ochib berolgan emasman. Mana hozir ham yozayapman-u, lekin qalamim eski o‘rganib qolgan maddohlik yo‘liga to‘yib ketayotganini sezib turibman. Nechundir mening tasvirimda Zulfiya opa farishta misol bo‘lib chiqyapti. Holbuki, u inson edi va har qanday inson hayot yo‘lida duch keladigan hamma sinovlar, mashaqqatlar, iztiroblar uning ham boshiga tushgan edi. Ko‘pgina she‘rlarida Zulfiya opa o‘zining “kemtik baxti” haqida gapiradi. Umrining so‘ngida yozgan “Xotiram siniqlari” dostonida esa o‘sha mashaqqatlar to‘g‘risida benihoya mardonalik bilan yozadi. Bu asar teranligi va mardonavorligi bilan menga Anna Axmatovaning “Marsiya” (“Rekviyem”) degan asarini eslatadi.

Shoiraning she‘rlari haqida, ularning latofati, insoniy jozibasi, teranligi to‘g‘risida juda ko‘p gapirish mumkin. Lekin men bugun boshqa bir savolga javob izlayapman – Zulfiyani odamlarga ardoqli qilgan, adabiyotimizning yorqin yulduzlaridan biriga aylantirgan, XX asrning buyuk ayollari qatoriga qo‘shgan asosiy omil nima? Menimcha, bu uning e‘tiqodi, juda yuksak ma‘naviy va axloqiy fazilatlari, dili bilan tilining birligi, she‘rlarida madh etgan insoniylik, vafu, sadoqat va diyonat degan narsalarga o‘zi hayotda o‘g‘ishmay amal qilganida. Iste‘dod ulug‘ ne‘mat, lekin iste‘dodning o‘zi bilan ish bitmaydi, shekilli. Ming afsuski, bizda ayrim iste‘dodli shoirlar va shoirlar bor, biroq ular o‘zlarining iste‘dodlariga berilib ketadilar-u, shunga yarasha inson sifatida ham ulug‘ bo‘lish kerakligini unutib yuboradilar. Bunaqa odamning ijodi biron-bir tayinli qimmatga yoxud salmoqqa ega bo‘lmasligi o‘z-o‘zidan ayon. Zulfiya opaning ibrati shundan dalolat beradiki, har qanday iste‘dodning yoniga insoniy fazilatlarga ko‘shilsagina, ijod muayyan salmoq kasb etadi. Bunga esa butun umr bo‘yi davom etadigan mashaqqatli mehnat bilan, astoydil jon kuydirish bilan erishiladi. Zulfiyaning oilaviy hayoti, muhabbati tarixi ko‘pchilikka yaxshi ma‘lum. Zulfiya shoir Hamid Olimjonni sevir, u bilan 1935-yilda turmush qurdi. Biroq oradan to‘qqiz yil o‘tgach, nogahoniy falokat tufayli ikkita farzand bilan eridan beva qoldi. Keyin esa umrining oxirigacha Zulfiya Hamid Olimjonga muhabbatini boshi ustiga qo‘yib, avaylab, asrab, gard yuqtiray olib o‘tdi. Ba‘zan Zulfiya to‘g‘risida ikki bolani otasiz katta qildi, deydishadi. Meningcha, bu unchalik to‘g‘ri emas, chunki Hamid Olimjon ruhan o‘z xonadonini biron kun ham tark etgan emas. Devorlardagi suvratlardan Hamid Olimjon yirik-yirik ko‘zlari bilan muttasil Zulfiyaga, farzandlariga qarab, ularning holidan xabar olib turardi, javondagi kitoblardan uning salobatli ovozi eshitilib turardi. Otaning ruhi tirik bo‘lsa, u oilaning hamma ishlarida, shu jumladan, bolalar tarbiyasida ham ishtirok etaverar ekan.

Zulfiya – atog‘li shoir, yirik davlat arbobi, jamoat ishlarida faoliyat ko‘rnatadi, el nazaridagi inson. Lekin u birinchi navbatda ayol, ayol bo‘lganda ham o‘zbek ayoli edi. U ayol sifatida muayyan burchga ega edi, Hamid Olimjondan erta ayrilgan farzandlarini o‘stirib, odam qilib yetishtirmoq kerak edi. Bu esa – eh-he, dunyodagi eng qiyin, eng mashaqqatli ishlardan biri. Qizig‘i shuki, siz farzandlaringizni moddiy ne‘matlarga ko‘mib yuborishingiz mumkin. Ular yaxshi kiyinishi, yeb-ichishi, shuhratingiz shu‘lasida gerdayib yurishlari mumkin. Lekin bularning hech qaysisi farzandning qobil bo‘lib chiqmog‘i uchun yetarli bo‘lmagisi mumkin. Nima uchundir u narkoman, bezori, buzuq, o‘jar, o‘g‘ri bo‘lib chiqishi hech gap emas. Zulfiya opa 30 yoshida beva qolgan edi – u 30 yashar ayolga atalgan bu dunyoning jami huzur-halovatidan, lazzatidan kechdi, qalbining butun qo‘rini farzandlariga bag‘ishladi. Buning oqibatida qizi Hulkan olim bo‘ldi, nafaqaga chiqquniga qadar dorilfununda dars berdi, Oybek domlaga munosib kelin bo‘ldi, o‘g‘li Omon esa – mana, qirg‘ yildirki, Oliy Majlisdan ishlaydi. U bu yerga oddiy korrektor bo‘lib ishga kirgan edi, keyin maslahatchi bo‘ldi, bo‘lim mudiri darajasiga ko‘tarildi, hozir esa Oliy Majlisning deputati, xizmat ko‘rsatgan huquqshunos. Eng qizig‘i shuki, men Hulkanim ham, Omonbekni ham qirg‘ yildan beri bilaman, lekin hali ularning biron marta kalondimog‘lik qilganini, burni ko‘tarilganini, boshqalarni mensimay qo‘ygani ko‘rgan emasman. Binobarin, Zulfiya opa o‘zining onalik burchini ham juda o‘rinlatib ado etdi – jamiyat uchun yaxshi fazilatlarga ega bo‘lgan ikki ajoyib insonni tarbiyalab yetkazib berdi.

Zulfiya opa o‘zbek she‘riyatida o‘ziga xos bir maktab yaratgan edi. Uning shogirdlari ko‘p edi. Bulardan ayrimlari – Oydxon, Qutlibeka va boshqalar bugun Zulfiya opaning chirog‘ini so‘ndirmaslikka harakat qilib, samarali ijod qilmoqda. Shoir shogirdlari bilan birga go‘zal bir she‘riyat chamanini yaratib ketdi. Xo‘sh, bugun bu bo‘ston qay ahvolda? Uning holidan ogoh bo‘lib, parvarishiga qarab turgan she‘rshunoslar, she‘rparastlar bormi?

Albatta, bugungi she‘riyat o‘z holiga tashlab qo‘yilgan desak, haqiqatdan uzoq bo‘lardi. Zabardast shoirlar bor, ularning tanlangan asarlari, yangi to‘plamlari chiqib turipti. Shu bilan birga shoir Erkin Vohidov aytgan “daho she‘rlar” yaratilmayapti. She‘riyatda borgan sari maydalashish holati sodir bo‘lyapti. Ayrim shoirlar o‘zi bilan narsalarni yozish o‘rniga sun‘iy gaplarni to‘qib chiqaradi, yasama gaplarni gapiradi. Ba‘zilar hali yigirmaga to‘lar to‘lmas “kuydim-pishdim”ga o‘tishadi, “o, dastingdan dod dunyo” deb hayqiradi, ba‘zilar “chaxning men ko‘rmagan dard-u balosi qoldimu?” degan savollarga ko‘mib tashlaydi, yana ba‘zilar chillaga kirgan mulladek, she‘rda chilyosinlar o‘qishadi. Ba‘zan shoirlar izlanish qilaman deb shunaqa ko‘chalarga kirib qolishyaptiki, yoqa ushlaymay ilojing yo‘q. Yaqinda

satadi, el nazaridagi inson. Lekin u birinchi navbatda ayol, ayol bo‘lganda ham o‘zbek ayoli edi. U ayol sifatida muayyan burchga ega edi, Hamid Olimjondan erta ayrilgan farzandlarini o‘stirib, odam qilib yetishtirmoq kerak edi. Bu esa – eh-he, dunyodagi eng qiyin, eng mashaqqatli ishlardan biri. Qizig‘i shuki, siz farzandlaringizni moddiy ne‘matlarga ko‘mib yuborishingiz mumkin. Ular yaxshi kiyinishi, yeb-ichishi, shuhratingiz shu‘lasida gerdayib yurishlari mumkin. Lekin bularning hech qaysisi farzandning qobil bo‘lib chiqmog‘i uchun yetarli bo‘lmagisi mumkin. Nima uchundir u narkoman, bezori, buzuq, o‘jar, o‘g‘ri bo‘lib chiqishi hech gap emas. Zulfiya opa 30 yoshida beva qolgan edi – u 30 yashar ayolga atalgan bu dunyoning jami huzur-halovatidan, lazzatidan kechdi, qalbining butun qo‘rini farzandlariga bag‘ishladi. Buning oqibatida qizi Hulkan olim bo‘ldi, nafaqaga chiqquniga qadar dorilfununda dars berdi, Oybek domlaga munosib kelin bo‘ldi, o‘g‘li Omon esa – mana, qirg‘ yildirki, Oliy Majlisdan ishlaydi. U bu yerga oddiy korrektor bo‘lib ishga kirgan edi, keyin maslahatchi bo‘ldi, bo‘lim mudiri darajasiga ko‘tarildi, hozir esa Oliy Majlisning deputati, xizmat ko‘rsatgan huquqshunos. Eng qizig‘i shuki, men Hulkanim ham, Omonbekni ham qirg‘ yildan beri bilaman, lekin hali ularning biron marta kalondimog‘lik qilganini, burni ko‘tarilganini, boshqalarni mensimay qo‘ygani ko‘rgan emasman. Binobarin, Zulfiya opa o‘zining onalik burchini ham juda o‘rinlatib ado etdi – jamiyat uchun yaxshi fazilatlarga ega bo‘lgan ikki ajoyib insonni tarbiyalab yetkazib berdi.

Zulfiya opa o‘zbek she‘riyatida o‘ziga xos bir maktab yaratgan edi. Uning shogirdlari ko‘p edi. Bulardan ayrimlari – Oydxon, Qutlibeka va boshqalar bugun Zulfiya opaning chirog‘ini so‘ndirmaslikka harakat qilib, samarali ijod qilmoqda. Shoir shogirdlari bilan birga go‘zal bir she‘riyat chamanini yaratib ketdi. Xo‘sh, bugun bu bo‘ston qay ahvolda? Uning holidan ogoh bo‘lib, parvarishiga qarab turgan she‘rshunoslar, she‘rparastlar bormi?

Albatta, bugungi she‘riyat o‘z holiga tashlab qo‘yilgan desak, haqiqatdan uzoq bo‘lardi. Zabardast shoirlar bor, ularning tanlangan asarlari, yangi to‘plamlari chiqib turipti. Shu bilan birga shoir Erkin Vohidov aytgan “daho she‘rlar” yaratilmayapti. She‘riyatda borgan sari maydalashish holati sodir bo‘lyapti. Ayrim shoirlar o‘zi bilan narsalarni yozish o‘rniga sun‘iy gaplarni to‘qib chiqaradi, yasama gaplarni gapiradi. Ba‘zilar hali yigirmaga to‘lar to‘lmas “kuydim-pishdim”ga o‘tishadi, “o, dastingdan dod dunyo” deb hayqiradi, ba‘zilar “chaxning men ko‘rmagan dard-u balosi qoldimu?” degan savollarga ko‘mib tashlaydi, yana ba‘zilar chillaga kirgan mulladek, she‘rda chilyosinlar o‘qishadi. Ba‘zan shoirlar izlanish qilaman deb shunaqa ko‘chalarga kirib qolishyaptiki, yoqa ushlaymay ilojing yo‘q. Yaqinda



Ozod SHARAFIDDINOV,
O‘zbekiston Qahramoni

bir shoirning she‘rini televizorda tahlil qilishdi. Uning yori betob ekan. Uzoqdan o‘rtog‘i ko‘rinipiti – u qizning ahvoli haqida xabar olib kelipiti. U yetib kelguncha, shoir xavotir ichida kutib turipiti. U kelib, “otang vafot etdi” debdi. Shoir xursand bo‘lib ketipiti (yori o‘lmaganiga bo‘lsa kerak-da). Asarni maqtagan tuppa-tuzuk shoirlar xuddi ana shu joyni “ichki dunyoni ochishdagi yangi kashfiyot” deb taqdim etishdi. Kashfiyot o‘lsin shunaqa bo‘ladigan bo‘lsa! Bunaqa gaplar she‘rda chinakam she‘riyat, nafosat o‘rniga, sahnada ko‘rsatiladigan yasama o‘yinlar, sun‘iy qiliqlar ko‘payib ketayotganini ko‘rsatmaydimi? Oq qog‘ozning tili, zaboni yo‘q – nimani yozsangiz chiday beradi, ammo iste‘dodning iste‘dodligi shundaki, u nimani yozishni bilishdan tashqari, nimani yozmaslik kerakligini ham yaxshi bilishi kerak.

Mayli, bu gaplarni qo‘yaylik. Siz hamma shogirdlaringizga butun jon-u jahoningizni baxsh etgan edingiz, o‘zbek she‘riyatining zulfiyalari o‘nlab va balki undan ham ko‘proq bo‘lishini istardingiz. Ammo nailoj – besh qo‘l baravar emas ekan, shogirdlar ham pand berar ekan. Ularning nobakorligi, xiyonati, vafosizligi – ustozning hayoti davomida kechiradigan jabr-u jafolari ichida eng alamlisi, yurakda bitmas chandiq qoldiradigan zarba bo‘lar ekan. Esingizdami, qaysi bir yili qaysi bir viloyatga borib, kunduzi paxta terib, oqshomlari hovli devoriga tappi yopib yurgan bir qizni topib kelgan edingiz. Afsuski, u ishonchingizni oqlamadi, Sizga munosib shogird bo‘loldi...

Ha, iste‘dod degani bu faqat mahorat emas, balki til va dilning birligi ham ekan. She‘riy mahorat sizdagiga o‘xshab yuksak axloqiy-ma‘naviy prinsiplarga tayangandagina ijod butun xalq ardoqlaydigan, ko‘p zamonlar mobaynida unutilmaydigan qadriyatga aylanar ekan.

Bugun tongda ruhi pokingiz bilan yana bir marta gurgunlashdim, Zulfiya opa. Va yana bir karra amin bo‘ldimki, o‘zbek adabiyoti XX asrda har qancha ziddiyatli, mashaqqatli va murakkab yo‘lni bosib o‘tgan bo‘lmasin, unda bir qator tom ma‘nodagi ijodkorlar yetishib chiqdi. Bugungi istiqlol kunlarida ularning ijodlari yangi qirralari bilan namoyon bo‘lmoqda. Shu porloq yulduzlar ichida siz ham oldingi qatorlardasiz, Zulfiya opa!

Sizni juda sog‘indim!

2002-yil

IJOD MAKTABI

Mamlakatimizda yosh avlod ta‘lim-tarbiyasiga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Jumladan, yurtimizda 2017-yildan tashkil etila boshlagan ijod maktablari o‘quvchilarning milliy tafakkurini tarbiyalaydigan o‘ziga xos maskanlarga aylandi. Shunday ibratli ta‘lim muassasalaridan biri Xorazm viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan Ogahiy nomidagi ijod maktabidir. Ulug‘ shoir tug‘ilgan joyda, uning nomida barpo etilgan bog‘ hududida bunyod etilgan ushbu maskanda 179 nafar o‘quvchi bilim oladi. Ayni paytda 34 nafar bitiruvchi maktabning o‘tgan yilgi 100 foizlik oliy ta‘lim muassasiga talaba bo‘lish natijasini saqlab qolish uchun astoydil harakat qilmoqda.

Maktabga kirish uchun talabgor o‘quvchi bir necha bosqichli tanlovdan o‘tishi kerak bo‘ladi. Qolaversa, umumta‘lim maktablariga qaraganda o‘quv dasturlari biroz murakkab. O‘qish jara-yonida yuklamalar, fan topshiriqlari ko‘pligiga qaramay, o‘quvchilar ijod maktabida o‘qishdan tashqari to‘garaklarga ham faol qatnashadi. Olayoqtan bilimlarini qo‘shimcha darslar bilan mustahkamlaydi.

– 2024-2025 o‘quv yilida o‘ta iste‘dodli bir o‘quvchi qabul imtihonlarining ikki bosqichida maksimal ballarni qo‘lga kiritdi, – deydi ijod maktabining ma‘naviyat ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari Bobur Sa‘dullayev. – Ammo to‘satdan



salomatligi yomonlashib, uchinchi bosqichga kela olmadi. Ochig‘i, shu bolaning maktabimizda o‘qishini o‘zimiz ham juda istadik. Chunki hali hech kim imtihonni bunchalik yuqori ball bilan topshirmagan edi. Butun pedagogik jamoa, hatto rahbariyat xayrixoh bo‘lsa ham, chorasi topilmadi. O‘tgan yilgi qabuldagina qaytadan hujjat topshirdi, har uchala bosqichda muvaffaqiyatli qatnashib, maktabimiz o‘quvchilari safiga kirdi. Hozir u ham boshqa o‘quvchilarning kabi ijodiy jihatdan ruhlantiruvchi va rag‘batlantiruvchi muhitda ta‘lim olmoqda.

Darvoqe, ota-onalarning Prezident maktablari, ijod maktablariga qiziqishlari bejiz emas. Har qanday ota-ona farzandi eng yaxshi maktabda o‘qishini xohlaydi. Ogahiy nomidagi ijod maktabi ham har tomonloma talabga javob bera oladigan maktab va ayni paytda tabiiy fanlar yo‘nalishida yaxshi natijalarni ko‘rsata olaypti.

Keyingi yillarda iqtidorli o‘quvchi Javohir Karimov “Mard o‘g‘lon” davlat mukofoti bilan taqdirlandi, yosh qalamkashlardan Dada-xon Qo‘ziyoyev, Jahongir Baxtiyorov, Dilrabo Yo‘ldosheva, Nigina Rustamboyevaning ijod

namunalari O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining “Birinci kitobim” loyihasi asosida nashr etildi. Shuningdek, eng zehnlari o‘quvchilar jamoasi “Zakovat” intellektual o‘yinining respublika bosqichida qayta-qayta ishtirok etdi. Respublika olimpiadalarida o‘quvchilarning ijodiy salohiyati yuzaga chiqmoqda.

Turkiyalik pedagog O‘gun Yavuzning mahoratli darslari o‘quvchilarni turk tili mutaxassisligiga deyarli tayyor darajaga olib chiqdi. Shu kungacha o‘ndan ortiq o‘qituvchi va 25 nafar o‘quvchi turk tili bo‘yicha xalqaro sertifikatni qo‘lga kiritdi. O‘tgan o‘quv yilida Xalqaro turk tili sertifikati – TYS imtihoni to‘g‘ridan to‘g‘ri Ogahiy ijod maktabida o‘tkazildi. O‘zbekiston bo‘yicha bu imtihonda 354 nafar o‘quvchi ishtirok etgan bo‘lsa, maktabning besh nafar o‘quvchisi “Turkiya Burslari” dasturi bo‘yicha yuz foizlik grantni qo‘lga kiritib, Istanbul, Najmiddin Erbaqon, Mug‘la Sitki Kochman, Uludag‘, Izzet Baysal universitetlarida tahsil olmoqda. Bu yildan turk tili to‘garagi ham faoliyat boshlab, tarjima yo‘nalishini rivojlantirishga yana bir qadam qo‘yildi.

O‘quvchilar qobiliyatini yuzaga chiqarish maqsadida maktab jurnali chop etilmoqda. Har ikki oyda nashrga tayyorlanib, ilmiy-ijodiy ishlar va maqolalar o‘rin qilinadigan nashr Farangiz Ibrohimova, Mohinur Hasanova, Hulkaroy Otajonova, Feruza Madrahimova kabi ijodkor yoshlarning faol harakatlari bilan chop etilmoqda.

“JAHOLAT BIR DAVOSIZ DARD”

“Jaholat bir davosiz dard erur johilg‘a...” deb kuyunib bitgan edi Ogahiy hazratlari. Albatta, bu darning davosi ma‘rifatda, ma‘naviyatda, ya‘ni chin kitoblardadir. Maktabning qariyb o‘n ming kitob fondiga ega katta kutubxonasi eng gavjum joyga aylangan. Kutubxona o‘zbek va jahon adabiyoti namunalari bilan muntazam boyitib borilmoqda. Barcha maktablarda bo‘lgani kabi bu dargohda ham “Bir haftada bir kitob” loyihasi bo‘yicha musobaqalar uyushtirilmoqda.

– Bola o‘zi qiziqadigan yo‘nalish bo‘yicha mashg‘ulotlarga qatnashishdan hech vaqt toliqmaydi, – deydi Bobur Sa‘dullayev. – Qolaversa, o‘quvchilarning uchun besh mahal oqatlanish tashkillashtirilgan. Yuz o‘rinli oshxonamiz ikki navbatda ishlaydi. 125 o‘rinli yotoqxona, 200 o‘rinli faollar zali bor. O‘quvchining ham ma‘naviy, ham jismoniy kamoli maktab ma‘muriyatining doimiy e‘tiborida.

Maktabning ijodiy salohiyati boshqa ijod maktablaridan, albatta, kam emas. O‘quvchilarning mashqlari vaqti-vaqti bilan viloyat va respublika nashrlarida chop etilmoqda. O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi bilan hamkorlikda doimiy tarzda tashkil etilayotgan onlayn mahorat darslari, shu bilan birga, viloyatning ko‘zga ko‘ringan shoir va yozuvchilari, jurnalistlarining jonli uchrashuvlari o‘quvchilarda amaliy ko‘nikmalar hosil qilmoqda.

Ayniqsa, gulxan atrofida tashkil etiladigan “Qiyot oqshomlari” mushoira kechalarini o‘qituvchi-yu o‘quvchilar intizorlik bilan kutadi. Xorazm televideniyesi va viloyat gazetasi tahririyatlariga ijodiy safarlari esa yosh ijodkorlar uchun o‘ziga xos malaka vazifasini o‘tarmoqda.

Muhayyo RUSTAMOVA



YOD ETIB



“TUG‘ILGAN YER UCHUN HURMAT YAXSHIROQ”

O‘zbekiston xalq rassomi Jolliboy Izentayev qoraqalpoq tasviriy san’atining shakllanishiga ulkan hissa qo‘shgan yirik san’at arbobidir. Bugungi kunda rassom asarlari yurtimiz va dunyoning qator davlatlari kolleksiyalaridan munosib o‘rin egallagan. Ular o‘zining noyoblighi va yuqori qiymati bilan katta ahamiyat kasb etib kelmoqda.

Jolliboy Izentayev 1943-yil 28-fevralda Qo‘ng‘irot tumanida tavallud topgan. Ilk ijodi o‘quvchilik chog‘ida cho‘l manzarasini aks ettirish bo‘lgan. Tasviriy san’at fani ustози, taniqli haykaltarosh Aman Atambayev yosh Izentayevga rasm solish bo‘yicha ilk saboqlarni bera boshlagan. Keyinchalik rassom ustози haqida shunday xotirlagandi: “Maktabda o‘qib yurgan kezarimda hammada oddiy qalam ham bo‘lmasdi, urushdan keyingi qahatchilik, oilalardagi yo‘qchilik bilim olishga to‘sqinlik qiladigan og‘ir davr edi. Shunday bo‘lsa ham, ustozimiz ko‘pchilik o‘quvchilarga, menga ham o‘zi qalam berardi. Darsdan keyin qalamlarni yig‘ishtirib olardi. Har bir bolaning qalam ushlashiga qarab uning iqtidorini bilib olardi. O‘shanda mendan: “Bolam, senga qalamni ushlashni kim o‘rgatayпти?” deb so‘ragan edi”. Shunday qilib, shamchiroq yorug‘ida chizgan suratlari ustozda hayrat uyg‘ota boshlagan.

Ustyurt cho‘llaridan to Jayhun qirg‘oqlarigacha bo‘lgan tabiat chizgilar, Qo‘ng‘irot elining manzaralari, tabiatdan zavqlanish hissi uni P.Benkov nomidagi Respublika rassomlik bilim yurtiga yetakladi. U yerda ko‘plab mohir ustozlardan professional rang-tasvir san’atining dastlabki sir-asrorlarini o‘rgandi. So‘ng A.N.Ostrovskiy nomidagi Toshkent teatr va rassomlik institutida o‘qishni davom ettirdi. Institutda dastlab mashhur rassom Rahim Ahmedov guruhida o‘qidi. Keyin unga Ne‘mat Qo‘ziboyev va Mannon Saidov kabi tajribali rang-tasvirchi rassomlar saboq berishdi.

Izentayevning dastlabki ijod davrida erishgan eng asosiy yutug‘i barcha janrlarda – natyurmortdan tortib portretgacha, manzaradan tortib yirik tarixiy polotnolargacha chizish malakasini egallagani, ularda rang-tasvir va g‘oya mazmun bilan bog‘liq turli masalalarni yechsa olish darajasiga ko‘tarilganida ko‘rinadi. Garchi dastlabki yillardagi rasmlarida keng miqyosdagi tasvirlar mukammal bo‘lmasa-da, qoraqalpoq elining turmushi, tabiati, odamlarning bir-biriga munosabatini beg‘ubor nigoh orqali ko‘rib, tasvirga tortgani bilan ajralib turadi. Bugun ko‘pgina darslik va adabiyotlarda o‘sha namunalarni uchratish qiyin emas.

Uning saqlanib qolgan qo‘lyozmalari, oila a‘zolariga aytgan o‘g‘itlaridan bilishimiz mumkinki, ijodga havasi ilk qalam ushlaganidan emas, balki tabiatni sevganidan boshlangan. Rassomlik bilim yurtida, keyin institutda o‘zlashtirgan professional mahorati unga ijod yo‘lining keyingi bosqichlarida ajoyib turkum asarlar yaratishi uchun mustahkam paydevor bo‘lib xizmat qildi.

1970-yillar oxiri – 1980-yillar boshiga tegishli “Qushinbay portreti”, “Ona portreti”, “Boranboy portreti”, “Qoraqalpoq ayoli”, “Baliqchi Amanbay”, “Askar maktublari” kabi turkum asarlar rassom mahorati o‘sgani va ijodi serjilo tus ola boshlaganini ko‘rsatadi. Ularda ijodkor o‘zgacha kompozitsion yechim, kolorit, rang va fakturalardan keng

foydalangan.

Shuningdek, tarixiy mavzudagi “Umid yo‘lida”, “Beglar fojiasi”, manzara janridagi “Xiva. Changli kun”, “Qo‘hna Urganch. Bozor”, “Bahorda Nukus”, “Qoraqalpog‘istonda kuz”, “Yashil hovli”, “Qumg‘onli natyurmort”, “Niqobli natyurmort” va boshqa natyurmortlari, Orol muammosiga bag‘ishlangan “Mo‘y-noq. Qumdagi saksovul”, “Kemalar qabristoni”, “Mo‘y-noq”, “Chekinayotgan dengiz tubi” asarlari yurtimiz tasviriy san’atining sara namunalariga aylandi.

Jolliboy Izentayev ijodining cho‘q-qisi – Qoraqalpog‘iston Respublikasi davlat bayrog‘i va gerbini yaratgani bo‘ldi. Rassom “Shoir T.Jumamuratov portreti” va “Poskan zamini” manzarasi uchun Berdaq nomidagi davlat mukofoti bilan taqdirlandi. Uning portret janridagi asarlari XX asr oxiri – XXI asr boshi Qoraqalpog‘iston rang-tasvirida milliy ruhni aks ettirishga samarali ta’sir ko‘rsatdi. Misr, Bolgariya, Fransiya, Rossiya, Sloveniya, Germaniya kabi ko‘plab davlatlarga qilgan ijodiy safarlari natijasida yaratgan asarlarida o‘ziga tanish bo‘lmagan joylar manzarasining nozik qirralarini mohirlik bilan aks ettirgani kishini hayratga soladi.

Izentayevning ijodiy faoliyati qanchalik sermahsul va boy bo‘lsa, uning davlat va jamoat arbobi sifatida olib borgan ishlari ham shuncha salmoqli bo‘ldi. U uzoq yillar O‘zbekiston Badiiy akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi raisi sifatida ish olib bordi. Uning jonbozligi bilan 1992-yilda Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika institutida “Rasm va chizmachilik” kafedrasini ochildi va u yerda Izentayevning o‘zi ham yosh avlodga tasviriy san’at sirlarini o‘rgatdi. 1997-yilda esa iqtidorli bolalar ixtisoslashtirilgan maktab-internatining ochilishida ham Izentayevning sa’y-harakatlari muhim rol o‘ynadi.

Ayni paytda, iste’dodli rassomning nomini abadiylashtirish maqsadida O‘zbekiston Badiiy akademiyasi tasarufidagi Qoraqalpog‘iston ixtisoslashtirilgan san’at maktab-internatiga Jolliboy Izentayevning nomi berildi, maktabda haykali o‘rnatildi, hayoti va ijodiga bag‘ishlab albom-katalog chop etildi. Ustoz yuzlab shogirdlar tarbiyaladi. Ular orasida o‘g‘lining ham rassom sifatida faoliyat olib borayotgani avlodlar an‘anasi davomiyligidan dalolatdir.

Jolliboy Izentayev san’at ravnaqiga qo‘shgan salmoqli hisssasi va samarali ijtimoiy-siyosiy faoliyati uchun davlatimizning yuksak mukofotlari bilan taqdirlangan. Unga O‘zbekiston xalq rassomi, Qoraqalpog‘istonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi faxriy unvonlari berilgan. “Qoraqalpog‘iston – mening Vatanim” turkum kartinalari uchun vafotidan keyin 2013-yilda O‘zbekiston Davlat mukofoti berildi.

Akademik Jolliboy Izentayev o‘zining noyob ijodi va fidokorona ijtimoiy faoliyati bilan qoraqalpoq milliy madaniyati va san’ati ravnaqiga salmoqli hissa qo‘shdi. Uning ajoyib asarlari O‘zbekiston tasviriy san’atining ajralmas qismi bo‘lmish Qoraqalpog‘iston milliy tasviriy san’atining oltin fondidan munosib o‘rin egalladi.

Jolliboy Izentayev o‘z hayoti va ijodini, ulug‘ shoir Berdaq yozganiday, “tug‘ilgan yer uchun hurmat yaxshiroq” degan g‘oya asosiga qurdi. Vatan va xalq uning mehnatlarini hech qachon unutmaydi, uning xotirasiga hurmat hamisha bardavomdir.

Saida SHERBOYEVA,
O‘zbekiston Kinofotofono
hujjatlari
Milliy arxivi bo‘lim mudiri

HUJJATLI HIKOYA

UZUN YO‘LNI YORITGAN CHIROQ

Bu lavhalar hayotda qanday ro‘y bergan bo‘lsa, aynan yozildi.

Muallif

1927-yil.

Tojinisa aya bir necha kundan beri yegani ichiga tushmas, xotirjam tortmas, eng yomoni – nimadan xavotirlanayotganini ham bilmas, bu dardini biortasi bilan baham ko‘rishni-ku, hay-hay, Xudoning o‘zi asrasin, og‘iz ochib, siringni doston qiladigan zamon emas. Birdan bir ishongani farzandlarining otasi, afsus, ayani bosh-keti yo‘q o‘ylovga solgan, jonini jodiga solib qiynayotgan ham – eri, to‘g‘rirog‘i, erining so‘nggi kunlarda kamgap bo‘lib qolgani, xayolchanligi edi. Ikki-uch bor jazm etdi, so‘ramoq qasdidagi og‘iz juftladi ham, biroq bu oilada erning gapi – gap, undan avval ayol kishining yo‘sansiz mavzulardan so‘z ochishi odobga sig‘mas, andisha zo‘r edi.

– Gap bunday, – dedi to‘satdan Mirahmad aka, xotinini ro‘parasiga o‘tqazib olib, – zamon qaltislashdi. Sho‘rodan umid yo‘q. Men juda uzoq o‘yladim, qattiq o‘yladim.

Mirahmad aka jim bo‘lib qoldi. Chamasi, u o‘ylab qo‘ygan gaplarini unutilib qo‘yganday, unutmagan bo‘lsa, yana qaytadan xayolida pishitib olayotgandek edi. Tojinisa aya bosh ko‘tarib, erining yuziga termildi. El-yurt orasida tadbirkorligi, omilkorligi bilan obro‘-e‘tibor qozongan, do‘konlari, bog‘-u choyxonalari nazarga tushgan, o‘ziga to‘q, saxovati bilan hurmat topgan odam chorasizlikdan bu qadar boshi qotganini ko‘rmagandi. Tilini tishlaganicha tutdi.

– Ketish kerak.

– Voy sho‘rim-m! – deb yubordi Tojinisa aya. – Kim ketadi? Qayoqqa ketadi?

– Men, yakka o‘zim. Afg‘onga ketaman.

– Men... biz-chi?!

– Sizlar sabr qilasizlar.

Mirahmad aka “Sabr qilasizlar” deganda xotini, o‘n ikki yoshli to‘ng‘i-chi Hojinisani, egizak tug‘ilgan, olti yoshli o‘g‘il-qizi Hasan-Zuhrani nazarda tutayotgan edi.

Davom etdi:

– U yerga borib boshpana hozirlayman. So‘ng sizlarni olib ketaman. Oллоh yurtimizni, qorako‘zlarimizni bolshovoyning zulmidan xalos etadi, inshoalloh.

– Bolshovoy... siz bolshovoyga yomonlik qilmagan bo‘lsangiz?..

Mirahmad aka tovushini xiyol ko‘tardi, bu uning avzoyi buzilgani belgisi edi.

– Bolshovoy uchun boy odam – yomon odam. Men boyman, demak, yomonman. Xullas, ro‘zg‘oring but, quyma oltinlardan qoldirib ketyapman, sandiqda. Muhtojlik ko‘rmay-san. Bolalarni asra. Allohning panohida bo‘laylik, jonimiz omonlikda diyor ko‘rishaylik, omin!

Mirahmad aka shunday deb yuziga fотиha tortdi-da, o‘zi tug‘ilib o‘sgan hovli sahnidan yana bir qur nigohini uzolmay qoldi. So‘ng esa tushgan yumushni ado etmoqqa tutingandek, qiyo‘os ochilgan rangorang guldorga qirdi. Qip-qizil ochilgan atirguldun uch dona qirqib oldi-da, uning bittasini onasiga, ikkinchisini Tojinisa ayaга, uchinchisini esa kenja qizi Zuhraonuga atalganini yozgan edi.

kuzdan umidvor bo‘ldi – qish o‘tdi. Sho‘roning sarhadlaridan xufiyona o‘tib kelganidan buyon uch yil ortda qoldi deganda, necha yillar muqaddam qiblagohi haj safarida Makkaga borgani, u yerda bir yil yashab qolgani va oila qurib bir qiz farzand ko‘rgani haqida bot-bot o‘ylay boshladi. Musofirchilik-sarsongarchilikda qora tortib boradigan bir xeshing bo‘lsin ekan!

Afg‘onda amallab uch yil jon saqlagan Mirahmad aka, qaydasan

hojiddin qori dodaning uyiga yo‘l oldi. Yetib kelishdi. Yoshi bir joyga yetgan, lekin hayotda bir-birini ko‘rmagan, tanimagan opa-uka bir-biri bilan qanday ko‘rishadi? Qanday salomlashadi? Bir-birini qanday so‘zlar bilan alqaydi? Bu kabi savollar haqida o‘ylashga sabr yetadimi?! Qanoat yetadimi?!

Hayajonli lahzalar yaqinlashdi. Amakining xonadoniga kirib borgan Zuhraon aya hovlida uzun oq libosda yurgan, tim qora soqoli bejirim kuzalgan Muhammad Umarga nigohi

o‘n yillar yuraklarni ezib yotgan armonlarga nur sochdi, nur!

...Zuhraon aya, o‘g‘li Shoahrор va yana uch-to‘rt yaqinlar hamrohligidagi toshkentlik mehmonlar Jidda shahrida zo‘r mamnuniyat ila kutib olindi. Mehmondorchilikdan-da aziz-roq-lazizroq diydorlashuv-tanishuv marosimlari Toifda davom etdi. Hikoyaga hikoya, xotiraga xotira ulandi. Ko‘z yoshlar o‘rnini bajonidil qah-qahalarga “bo‘shatib” berdi.

Mirahmad hoji doda 1973-yilda 93 yoshda bandalik qilgan, u kishidan



Makkai mukarrama, deya olis yo‘lga ravona bo‘ldi.

1964-yil.

Yunusobod deparasidagi Mirza-yusuf jome masjidi imomi Minhojiddin qori kimdir qo‘liga tutqazib ketgan maktubdan ko‘z uzolmay qoldi. Maktub kimdan, qay manzillardan, qay yo‘sinda yetib keldi, ne sababdan aynan unga berishdi – noma‘lum. Bu yetmaganday, imom kaftida turgan jajjigina yashil baxmal xaltachani ochib ichiga qarash u yoqda tursin, uning bog‘ichiga qo‘l cho‘zishga jur‘at topolmay, mutaassir ahvolda qoldi. Biroq bo‘lar ish bo‘ldi, maktubni o‘qimaslik ham, xaltacha ichiga nigoh tashlamaslik ham yo‘q yerdagi balolarni boshlab kelishi hech gap emas.

Minhojiddin qori “Bismillahir rohamanir rohiym” kalomi bilan boshlangan xatning avval-bosh unvoniga ko‘z yugurtirdi. Ko‘z yugurtirdi-yu, turgan joyida hushini yo‘qotib qo‘ya-yozdi. Ko‘ziga, dam ichida, dam tovush chiqarib o‘qigan so‘zlariga ishonmadi.

Xat tug‘ishgan og‘asi, bundan 37 yil burun Afg‘on sari yo‘l olgan, o‘shandan buyon na xat, na xabar kelgan jigargo‘shasi Mirahmad akaning qo‘li bilan yozilgan edi! Akasi Saudiya Arabistonining Toif shahrida istiqomat qilishi, u yerda asli marg‘ilonlik Jamilaxon Hakimjon qizi bilan oila qurgani, besh nafar o‘g‘li va bir nafar qizi borligini qisqacha ta’riflagan, xaltachadagi ikki juft tilla baldog Toshkentda qolgan qizlari Hojinisa va Zuhraonuga atalganini yozgan edi.

1990-yil.

Shoahrор uyga odatdagidan erta-roq qaytdi. Qaytdi-yu, uning yo‘liga ko‘z tikib o‘tirgan onasi Zuhraon ayaning yig‘layotganini ko‘rdi.

– Nima gap, ona? Tinchlikmi?

– Tez, tez o‘tlan, o‘g‘lim, Minhojiddin amakinikiga boramiz, bo‘la qol!

– Nima gap, o‘zi, ayta qoling oyi? – qayta so‘radi Shoahrор xavotirlanib.

– Aytсам ham ishonmaysan, Arabistondan tog‘ang kelibdi!

– Arabistondan? Tog‘am?!

– Boraylik, ko‘rsasan! Ukam kelibdi, lekin o‘zim ham ko‘rmaganman uni. Ismi Muhammad Umar!

Zuhraon aya qachon duoga qo‘l ochsa, chehrasi es-es yodida qolgan otasini eslar, eslar ekan, “Otam bergan atirgulni isi kelyapti”, deb qo‘msab qo‘yar, padari buzruk-jonini asrash uchun ne kunlarni boshidan o‘tkazmadi. Do‘kondorlik qildi, zirotchilikka tutindi, qoramol ko‘paytirdi, qora mehnatdan qaytmadi – kun sanadi, oy sanadi. Bahorga umid bog‘ladi – yoz o‘tdi,

tushdi-yu, “Oh, otajon!” degancha o‘zini mehmon yigitning bag‘riga otdi. Izohlar ortiqcha, ta’rif ortiqcha, hayajondan til kalimaga kelmas, ko‘zlar shashqator yoshga to‘ldi. Yo Parvardigori olam, Zuhraon ayaning nazarida bundan 63 yil muqaddam, so‘nggi marta olti yoshida ko‘rgan otasi qaytib kelgandek, tinmay, “Quyib qo‘yganday otamning xuddi o‘zi! Xuddi o‘zi!”dan boshqa so‘z topolmas edi!

Qariyb 70 yoshida ota bir – ona boshga inisi bilan ilk bora diydorlashgan Zuhraon aya xotirasida nima bo‘lsa, mehmon ukasiga to‘kib soldi. Umr bo‘yi otasi keta turib tutqazgan qizil atirgulning sehlarga to‘la jannatiy hidi dimog‘idan ketmaganini ta’riflab to‘ymadi.

– Otam yotgan yostiqaqa bir marta bosh qo‘ysam, bu dunyodan armonsiz o‘tardim.

– Inshoalloh, buning chorasi topilajak, opajon, – deya unga tasalli berdi Muhammad Umar. – Orzu-umidlirimiz ro‘yobga chiqishiga Alloh madad berajak!

1991-yil.

Ozmuncha oshkora va pinhona orzu-umidlir qora tuproqlarga ko‘milib ketmadimi?! Ozmuncha diydor ko‘rishishlar oxiratga qolmadimi?! Aylanayin, istiqloq, ko‘zlarindan ozodlik! O‘rgulayin, hurlik-xurramlik! Qaynoq bag‘ringga singib ketay, onajon Vatan!

Istiqloq, hurlik, ozodlik ne-ne ko‘ngillarni munavvar ayladi! Taqdiring charog‘on ko‘chalariga ozmuncha umid bog‘ladimi?! Hisobiga yetib bo‘larmikan?!

– Qanotim bo‘lsa, uchib ketardim otam ketgan ellarga! – deya ozmuncha tavallo qilganmudi Zuhraon aya.

– Onajon! Men katta bo‘lay, o‘zim sizni albatta olib boraman bobom ketgan yurtlarga, – deya va‘dalar qilardi Shoahrор.

O‘g‘li go‘dak chog‘laridan aytadi shu gapni, aya esa ishonmaydi-ishonolmaydi, lekin umidini uzmaydi, bu shoyon umid taqdirning boshi berk ko‘chalarida bayram-shodiya kunlar kelishiga bo‘lgan ishonchsizlikdan zo‘r kelardi. Mana, nihoyat mo‘jiza ro‘y bermoqda, mo‘jiza: Shoahrор o‘g‘li qirchillama yoshga yetgan bir damlarda beg‘ubor bolaligidan buyon berib kelgan va‘dasining ustidan chiqmoqda – Moskva aeroportidan ko‘tarilgan samolyot Jidda shahri tomon parvoz qilmoqda!

“Nasib” so‘zi naqadar totli! Aql bovar qilmas orzu-niyatlar Vatanimiz mustaqilligi sharofati bilan amalga oshmoqda! Vatan mustaqilligi necha

besh o‘g‘il, bir qiz farzand qolgan. To‘ng‘ich farzand Muhammad Ali London universitetlaridan birida professor, Muhammad Siddiq, Muhammad Umar, Muhammad Usmon, Muhammad Amin shifokor, tijoratchi-hunarmand, qiz farzand Abbosiya hamshira o‘laroq tuz-nasibani terib yurib hayot kechirishar, qiblagohlaridan meros qolgan armon to‘la xotiralari aytgan bilan tugamas edi. Zuhraon aya qilgan iltijolari Allohga yetib borganidan adadsiz shukronalar aytar, o‘g‘li Shoahrорning go‘daklik chog‘laridan bergan va‘dalarining ijobat bo‘lganidan taqdirning marhamatiga shukronalar o‘qir edi.

Shaharning muhtasham mavze-laridan birida qad rostlab turgan besh qavatli uy mehmonlar ixtiyoriga berildi. Muhammad Umar Zuhraon ayaga yotoq bo‘lmasini tanishtirdi.

– Rahmatli padarimiz shul xonada istirohat qilar edilar. Joylari o‘shal, ko‘rpa-to‘shaklari o‘shal.

Zuhraon aya oh tortdi, ota hovlida ochilgan qizil atirgulning hayotbaxsh ishi taralgandek bo‘ldi xonada. Otasi bosh qo‘yib yotgan bolishga bosh qo‘ydi, betini momiq bolishga bosib, ushalmagan armonlari dog‘ida bu dunyoni tark etgan qiblagohining islarini to‘yib-to‘yib hidladi.

– Bu damlar men uchun – haj, otamning o‘rni men uchun haj maqomidan oz emas.

Yana bir kutilmagan voqea keyin yuz berdi. Muhammad Umarning aytishicha, mazkur besh qavatli uy emas – xonadonni otalari Mirahmad hoji Toshkentda sho‘rolar istibdodida qolgan farzandlari uchun atab qurdirgan ekanlar.

– Mazkur mulk sizlarga atalgan meros, – dedi Muhammad Umar. – Padarimiz vasiyatlarini ado etish bizga omonat. Istangiz, mulkning o‘zi, istangiz uning qiymati sizlarniki.

2026-yil.

Shoahrор aka xotirlaydi:

– Onam rahmatli nihoyatda mag‘rur, q‘ururi baland ayol edilar. (“Nima qilsa ham, boynig qizi-da” deb kulib.) Mezbonlar tomonidan ko‘rsatilgan marhamatdan minnatdor ekanliklarini izhor qilgach, g‘oyatda vazminlik bilan javob qaytardilar: “Allohga beaded shukr, bizning ona vatan – O‘zbekiston, Toshkentda uy-joylarimiz bisyor, zarracha muhtojlik yerimiz yo‘q. O‘zimiz ham, qornimiz ham, eng muhimi, ko‘zimiz ham to‘q! Biz uchun og‘a-ini, opa-uka jigarlarimiz bilan topishganimizning o‘zi bebaho ne‘mat. Allohning beaded marhamati, alhamduilloh!..”

Xurshid DO‘STMUHAMMAD



OLAM OLIMI



Mariya KYURI

Tarixda o'chmas iz qoldirgan, matonat va vatanparvarlik timsoli bo'lgan nobelchi

Mariya Sklodovskaya-Kyuri 1867-yilning 7-noyabrda Polshada kambag'al o'qituvchi oilasida tug'ilgan. O'sha vaqtda vatanida xotin-qizlar uchun oliy ta'lim olish taqiqlangani bois 24 yoshida Fransiyaning Sorbonna universitetiga o'qishga kiradi.

FAQAT BIRINCHI

Mariya Kyuri hayoti va faoliyatida "birinchi" sifatiga takror-takror duch kelamiz. U Fransiya fan doktori darajasini olgan birinchi ayol. Parij universiteti (Sorbonna) tarixidagi birinchi ayol o'qituvchi va professor.

Nobel mukofoti bilan taqdirlangan birinchi ayol. Ikki karra Nobel olgan birinchi inson hamda ikkita fan sohasida ushbu mukofotni qo'lga kiritgan yagona olim. Shuningdek, Kyurilar "birinchi nobelchi oila" hisoblanadi.

Birinchi Jahon urushi davrida birinchi bo'lib mobil rentgen stansiyalarini ("Kichkina Kyurilar") tashkil qilgan. 1995-yilda uning xoki Fransiyaning eng buyuk shaxslari dafn etiladigan joyga ko'chirildi. U bu sharafiga loyiq ko'rilgan birinchi ayol bo'ldi.

VATANSEVAR KASHFIYOTCHI

1903-yilda Anri Bekkerel "radioaktivlikni kashf etgani uchun", er-xotin Kyurilar "radiatsiya hodisalarini birgalikda tadqiq qilgani uchun" fizika yo'nalishida Nobelga sazovor bo'ladi.

Keyinroq Mariya turmush o'rtog'i Per Kyuri bilan uran tarkibini o'rganish jarayonida unga nisbatan 400 marta ko'proq radioaktivlikka ega moddani kashf qiladi. Olima garchi Fransiya yashayotgan bo'lsa ham, ona vataniga bo'lgan muhabbati zarracha susaymagandi. Shu sabab, yangi moddani Polsha sharafiga "poloni" deb ataydi. Kyurilar poloniyni kashf qilgach, unda yana qandaydir nur taralayotgan modda borligini sezib qoladi. Bu qiziqish esa Mendeleyev jadvalining 88-elementi bo'lgan "radiy" kashfiyotiga sabab bo'ldi.

Mariya Kyuri 1911-yilda radiy va poloniyni elementlarini kashf etgani, radiyni sof metall holida ajratib olgani hamda uning tabiatini o'rgangani uchun kimyo bo'yicha Nobel mukofotiga loyiq ko'riladi. Afsuski, bu paytga kelib eri fojiali tarzda halok bo'lgan edi.

ILM – INSON UCHUN

Mariya xonim zamonaviy tibbiyot, fizika va energetika sohalarida inqilob yasadi. Bugungacha ham uning kashfiyot va ixtirolari millionlab odamlar hayotini saqlab qolishga xizmat qilmoqda:

Saratonga qarshi kurash – Kyurilar radiy sog'lom hujayralarga qaraganda kasallangan hujayralarni tezroq parchalashini aniqladi. Shu tariqa nur muolajasi (radioterapiya) sohasiga asos solindi.

Soddalashtirilgan rentgen – Birinchi Jahon urushida mobil rentgen apparatlari ("Kichkina Kyurilar") yordamida askarlar tanasidagi o'q va mina parchalari tezkorlik bilan aniqlanib, bir milliondan ortiq insonning hayoti saqlab qolindi.

Atom va yadro fizikasi taraqqiyyi – Mariya Kyuri radiatsiya moddalarning kimyoviy reaksiyasi hosilasi emas, balki atomning ichki xususiyati ekanini isbotladi. Bu kashfiyot atom tuzilishi haqidagi tasavvurni butunlay o'zgartirdi, keyinchalik yadro energetikasi hamda atom fizikasining rivojlanishiga yo'l ochdi.

E'tiborlisi, Kyurilar radiy uchun patent olmagan – ular ilm-fan butun insoniyatga tegishli deb hisoblashgan.

JONFIDO

Mariya Kyuri 1934-yil 66 yoshida Fransiya davlati sihatgohda vafot etgan. Shifokorlar unga qon ishlab chiqarish tizimining buzilishi tashxisini qo'ygan. Bu kasallik ko'p yillar himoya vositalarisiz radioaktiv moddalar bilan ishlashi va urush davridagi rentgen nurlanishi ta'sirida yuzaga kelgan.

Xoki radiatsiya tarqatgani sababli 2,5–3 santimetr qalinlikdagi qo'rg'oshin bilan qoplangan tobut ichiga joylashtirilgan. Olimaga tegishli laboratoriya daftarlari va shaxsiy buyumlari shu darajada radiatsiya bilan zaharlanganki, ular Fransiya Milliy kutubxonasida qo'rg'oshin qutilarda saqlanadi.

MUNOSIB AVLOD

Mariya Kyurining to'ng'ich qizi Iren Jolio-Kyuri va kuyovi Frederik Jolio-Kyuri ham ilm-fan olamida yuksak cho'qqilarni zabt etishgan.

Iren Birinchi Jahon urushi davrida onasi bilan birga rentgen hamshirasi bo'lib ishlagan. Keyinchalik Radiy institutida ilmiy faoliyatini davom ettirib, o'z davrining eng mashhur olimalaridan biriga aylandi. Frederik Mariya Kyurining shogirdi edi. Ireniga uylangach, Kyurilar oilasiga hurmat ramzi sifatida o'z familiyasiga "Kyuri" nasabini qo'shib olgan.

Er-xotin 1935-yilda sun'iy radioaktivlikni kashf etganlari uchun kimyo bo'yicha Nobel mukofotiga sazovor bo'lgan.

XULOSA

Mariya Kyuri – matonat, fidoyilik va ilmga sadoqat timsoli. Ilm-fan qudratini o'ziga bo'yusundirgan va shu orqali jamiyatdagi ayollarga nisbatan qo'yilgan stereotiplarni ayovsiz parchalab tashlagan olima dunyo yoshlariga ibrat sanaladi.

Jasmina ISROIL tayyorladi.

O'Y

QORIN QAYG'USIDAGI QAVM



po'rim kiyinishga sarf qilgan. To'rtidan birini o'sha davr islohotlariga atashgan, ya'ni foydali ish bilan shug'ullangan.

Bir asr ilgari yuzaga kelgan vaziyatni hozirgi kunimizga ko'chirib, garchi foizlarda farq kuzatilsa-da, ayrim yoshlar va hatto, o'rta yoshlilar o'rta va yoshlar ham hamon qorin qayg'usini birinchi o'ringa qo'yish holatlari barham topmaganiga guvoh bo'lamiz. Achinish bilan qayd qilish o'rni, bugun daromadning sezilarli qismi bir kunlik hoy-u havasga, dabdabali ziyofatlar uyushtirib, qorin to'yg'azishga sarflanmoqda.

Ijtimoiy tarmoqlarda turli-tuman guruhlar ochilib, ularga maslagi, yoshi, kasbi o'zaro yaqin kishilar birlashgan. Shunday guruhlarining aksaridagi o'zaro yozishmalariga e'tibor qaratsangiz, hayratdan yoqa ushlaysiz. Asosiy mavzu: "Qachon "patiy" uyushtiramiz?" "Patiy", ya'ni qaysidir shahardagi eng hashamatli restoranda uyushtiriladigan bazm uchun yetti va ba'zan sakkiz raqamlarda ifodalangan mablag' ketishini aytgini! "Patiy" tashkilotchisi o'zi yashaydigan shahardagi muhtasham restoranni oldindan band qiladi. Har bir ishtirokchi yelkasiga tushadigan mablag' qanchaligini aytadi. Ishtirok etadigan odam o'sha mablag'ni oldindan tashkilotchi plastik kartasiga tashlab beradi. Boshqa viloyatlardan keladiganlar uchun oldindan mehmonxona band qilinadi. Qisqasi, yo'l xarajatlari, mehmonxonada tunash va "patiy"ga to'lanadigan mablag' eng kamida bir-bir yarim million so'mga tushadi. Bu ko'pi bilan uch soat davom etadigan bazmning bahosi. Yana aytishlaricha, "patiy" tashkilotchisi, ya'ni o'z tanishlarining "patini yulgan" shovhoz va restoran egasi o'rtasida og'zaki kelishuv bo'lib, o'rtadagi daromaddan tashkillashtiruvchi ulush olarkan.

Tush vaqti bir tuman markazidagi ajnabiycha atamali kafega kirmoqchi edik, peshtoqidagi "Faqat patiy va ziyofatlarga xizmat qilamiz!" degan yozuvni ko'rib, ortimizga qaytdik. Ikki qavatli yemakxonada o'n beshdan

o'ttiz nafar xo'randaga xizmat qiladigan to'rtta zali bor ekan. Yakka tartibda xo'randalarga xizmat qilmasligi sababi, aynan shunaqa turdagi "patiy"lardan mo'maygina daromad topishlaridir. Demakki, talab va ehtiyoj borki, butun bir kafe shunga ixtisoslashgan. Yetti chog'li xodim maoshi, soliq va boshqa to'lovlar aynan "patiy"chilar cho'ntagi hisobidan ekani kunday ravshan. Bu kabi serchqim, dabdabali o'tirishlar tuman markazlaridagi yemakxonalarga yetib kelgan ekan, viloyat markazlarini aytmasa ham bo'ladi. Oyda kamida ikki marta shunday "patiy"larni navbati bilan yurtimizning turli shaharlarida tashkillashtiradigan guruhga asosan sarmoyador insonlar a'zo bo'lsa kerak, deb o'ylarsiz. Yo'q, guruh a'zolari orasida oddiy o'qituvchilar, xorijda mavsumiy ishlaydigan insonlar ham bor.

Uch soatlik bazmga ketadigan mablag'ga bir oila bir oy tirikchiligini o'tkazishi mumkin-ku! Yoki "velosipedini garovga berish majburiyatida qolgan" jiyancham tug'ilgan kunini o'z oila davrasida ixchamgina o'tkazsa bo'lmaydimi? Shunda dasturxonga tortilgan ne'matlardan oila a'zolari ham bahramand bo'lishadi, velosipedi ham yoniga qoladi...

Nimaga bu qadar maishatga mukkasidan ketgan yoshlar ko'paymoqda?

Buning ortida "Mening sendan qayerim kam?" degan poyga yotibdi. Uzoqqa bormay, jiyanlarimdan yana biri tug'ilgan kunini qishloqdagi bir yemakxonada o'tkazibdi. "Yetti jo'ra mazza qilib o'tirdik, bir yarim million so'm ketdi. Jo'ralarimdan birortasi hali bunchaga "erimagan"di. Keyingi oyda tug'ilgan kunini nishonlaydigan jo'ramiz ichib olib, "Men bundan ham zo'r qilib o'tkazaman", deb maqtanib va'da berdi. Ko'ramiz endi". "Tug'ilgan kuningni uyingda nishonlasang, dasturxonda qolgan-qutganini bolalaring totinardi. Buncha pul sarflamasding ham", deb dakki bersam, u bamaylixotir: "Siz bilmaysiz, tog'a. Hozir zamon boshqa", deb aql o'rgatadi.

So'nggi yillarda sobiq kursdoshlarning yilda bir-ikki navbati bilan viloyatlarda uchrashuv tashkillashtirishi urfga kirgan. Amakimning o'g'li muhandislikka o'qigan. Arzimagan maosh bilan katta oilasini boqyapti. Bu yoqda... Ularning navbatdagi "kursdoshlar o'tirishi" vodiyning qaysidir tog'oldi dam olish zonasida o'tkazilibdi. "Ikki kunlik uchrashuv uchun bir dala hovlini odam boshiga kuniga ikki yuz dollardan ijaraga olishibdi ekan. Dasturxon uchun yana odam boshiga yuz dollardan ketdi. Surxondaryolik kursdoshimiz "tandir" olib borgan ekan, rosa maza qildik", deb gap beradi u qaytgach qo'shnilariga. Ikkinchi o'g'li yigirma besh yoshda. Bir yil oldin qo'shni qishloqlik tanish xonadon qizini "ishonishib" qo'yishgan. To'y cho'zilayotganiga qo'li kaltaligi sabab. Shu haqda gap ochsangiz... mavzuni yana "galdagi uchrashuv"ga buradi: "Navro'zda Samarqandda uchrashuvimiz bor. Shunga borib kelsak... keyin..."

O'sha amakimning o'g'li to'rt farzandidan birortasini oliygohda o'qitmad. Uyida bir dona kitob topolmaysiz. Kasbsiz-hunarsiz qolgan o'g'illari xorijga ish axtarib ketish yoki o'zimizda kundalik ishlar bilan besh-o'n so'm topishdan boshqasini bilmaydi. O'sha topganining aksarini tengqurlari bilan qay bir yemakxonalarda bir kechada havoga sovuradi ham.

Hozirda urchib ketgan "ayollar ziyofati", "hojilar ziyofati" va shunga o'xshagan turli-tuman ziyofat, uchrashuvlar haqida eslataverish ortiqcha...

Yuqorida yoshlar turli chiqim-davralarga mukkasidan ketgani haqida afsus bilan yozdik. Nega bunday yoshlar ko'paymoqda, deb o'zimizcha nasihatbozlikka berildik ham. "Qush uyasida ko'rganini qiladi", deyilmish otazo'zimiz yodimizdan ko'tarildi. Kattalar – ota-onalar ko'p hollarda qornini qadriyat deb biladigan muhlida bor aybni yoshlarga to'nkash qanchalik to'g'ri?

...Davrada kimdir qo'l telefonida ko'zi tushgan xabarini hayajonlanib aytdi: "Buni qaranglar, o'ninchi sinf o'quvchisi AQSHdagi mashhur universitetning 320 ming dollar qiymatli grantini yutib, talaba bo'libdi. 320 ming dollar bizning pulga..." Uning gapini yaqinda xorijda ishlab qaytgan davradoshi og'zidan oldi: "Qo'y, bu gaplarni! Senga qora chaqalik nafi yo'q. Ertaga bo'ladigan o'tirishimizga qanchadan pul tashlaymiz, shundan gapir!" Davrada qatnashayotganlarning aksari ziyoli insonlar ekani, luqma tashlagan kimsaga hech kim e'tiroz bildirmaganiga uyalib ketdim. Rosti, qornidan boshqa qayg'usi yo'q qavmga e'tiroz aytmoq o'rni emasdi.

Shu lahzada Qodiriy boboning bir asr ilgari "istatistikani chog'ishtirib", o'lkadagi salkam o'n sakkiz ming nafar muallim haqida fikr yuritayotib kinoya bilan yozmishlari esimga tushdi: "...bay-bay-bay; pishti kabob, pishti!"

Ro'zimboy HASAN

JAHON AYVONIDA

QIT'ADAGI ENG BALAND INSHOOT AQSH prezidenti Donald Trampga tegishli kompaniya – Trump Organization Avstraliyada osmono'par bino qurish rejalarini e'lon qildi.



Prezidentning o'g'li Erik Trampning so'ziga ko'ra, ushbu inshoot mamlakatdagi eng baland bino bo'ladi. Bu haqda BBC xabar berdi.

Kvinslend shtatining Gold-Kost (Oltin qirg'oq) hududida qad ko'taradigan ushbu minora 335 metr balandlikka ega bo'ladi. Bu Londondagi mashhur Shard osmono'par binosidan ham balandroq demakdir.

ILON MASK SUDLANADIMI?

Meksika hukumati milliarder Ilon Maskka nisbatan huquqiy choralar ko'rish masalasini ko'rib chiqmoqda.



Bunga texnologiya gigantining Meksika prezidenti Klaudiya Sheynbaumni mamlakatdagi narkokartellar bilan aloqadorlikda ayblagan sabab bo'ldi. Bu haqda Newsweek yozadi.

Sheynbaum hukumati hozirda AQSH tomonidan kuchli bosimga uchramoqda. Vashington Meksikadan AQSH chegarasi orqali o'tayotgan afyun oqimini to'xtatish uchun qat'iy choralar ko'rishni talab qilmoqda. Biroq Meksika rahbari o'tmishdagi xatolarni takrorlamaslik tarafdori.

LUVR DIREKTORI ISHDAN OLINDI



Talonchilik, suv toshqini va soxta chiptalar mojarosi ortidan Luvr direktori Lorans de Kar lavozimidan ketdi. Bu haqda Yelisey saroyi matbuot xizmati xabar berdi.

Unda aytilishicha, de Kar prezidentga Luvr direktori lavozimidan ketish haqidagi arizasini topshirgan. Davlat rahbari bu qarorni mas'uliyatli qadam sifatida baholagan.

ENERGETIK ICHIMLIKLAR TAQIQLANADI

Ispaniya hukumati voyaga yetmaganlarga energetik ichimliklar savdosini cheklash bo'yicha qaror qabul qildi. Ijtimoiy huquqlar vaziri Pablo Bustinduy ma'lum qilishicha, 16 yoshga to'lmagan bolalarga bunday ichimliklar sotish taqiqlanadi.



Kofein miqdori 100 millilitrda 32 milligrammdan yuqori bo'lgan mahsulotlar esa 18 yoshgacha bo'lganlarga umuman berilmaydi. Bu haqda Euronews yozmoqda.

Oziq-ovqat xavfsizligi agentligi o'tkazgan so'rov natijasiga ko'ra, aholining to'g'iz nafardan sakkiztasi bu cheklovni qo'llab-quvvatlagan.

ISLANDIYA ITTIFOQQA QO'SHILMOQCHI

Islandiya yaqin oylar ichida Yevropa Ittifoqiga a'zo bo'lish muzokaralarini qayta boshlash yuzasidan referendum o'tkazadi. Bu haqda mamlakat bosh vaziri Kristrun Frostadottir Polshaga tashrifi chog'ida ma'lum qildi.



Reykjavik to'rt yillik muzokaralardan so'ng 2013-yilda Yevropa Ittifoqiga a'zolik muzokaralaridan voz kechgandi. Biroq yashash narxining oshishi va Ukrainadagi urush orol-davlatning ittifoqqa qo'shilishga bo'lgan qiziqishini qayta jonlantirishga yordam bergan.



MILLAT FIDOYILARI

Samarqandda jadid harakati haqida soʻz borsa, tabiiyki, eng avval Mahmudxoʻja Behbudiy va “Oʻyina” jurnali atrofida jamlangan ziyolilar, maktab ochgan maʼrifatparvar shaxslar nomi tilga olinadi. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Samarqandda oʻnlab yangi usul maktablari tashkil etilib, ularda yuzlab bolalar yangi dasturlar asosida taʼlim olgan.

1893-yili ilk yangi usul maktabi ochilgan boʻlsa, 1903-yilga kelib Halvoyi va Rajabamin qishloqlarida ham shunday maktablar faoliyati yoʻlga qoʻyilishi jadid gʻoyalari qisqa vaqt ichida keng tarqalganidan dalolat beradi. Oʻquvchilar uchun Behbudiy tomonidan “Risolai asbobi savod”, “Risolai jugʻrofiyai umroniy”, “Kitobat ul-alfol”, “Amaliyoti islom”, “Tarixi islom” kabi darsliklar yaratilgani taʼlim tizimidagi yangilanishlarni yanada tezlashtirdi.

Jadid harakati tarixga faqat mashhur nomlar orqali bitilmagan. Yaʼni, yangi maktablarda taʼlim olgan, keyinchalik turli sohalarida mehnat qilgan yuzlab yoshlar ham ana shu maʼrifat muhiti taʼsirida ulgʻaygan edi. Afsuski, ulardan koʻpining nomini vaqtli matbuot sahifalaridan topolmaysiz, ayrimlarining taqdiri esa keyingi siyosiy voqealar tufayli uzoq vaqt nomaʼlum qolgan. Ana shunday avlod vakillaridan biri Hikmatulla Hismatov boʻlib, uning hayot yoʻli jadid muhitida shakllangan koʻplab insonlar taqdiri bilan mushtarak.

Hikmatulla Hismatov 1898-yili Samarqand shahrida tugʻilgan. Otasi xizmatchi, soʻngra Fargʻona va Andijon hududlarida mirob boʻlib ishlagan. Arxiv hujjatlarida uning maʼlumoti quyi ekani, rus-tuzem maktabining 2-sinfini tamomlagani keltiriladi. Bu kabi qaydlar oʻsha davrda insonning ijtimoiy maqomini belgilashda muhim ahamiyat kasb etganini hisobga olsak, Hikmatullaning keyingi taqdiri qanday murakkab sharoitlarda kechganini tushunish ancha osonlashadi.

Hikmatullaning oʻzi taʼlimni davom ettirishga intildi, avval rus-tuzem maktabida, keyin Samarqanddagi bilim yurtida tahsil oldi. Uning yoshlik yillari Turkistonda yangi usul maktablari kengayib, maorif sohasida islohotlar kuchaygan davrga toʻgʻri keladi. 1911-yildan atogʻli maʼrifatparvar Abduqodir Shakuriy tashkil etgan yangi usul maktabida toʻrt-besh

MOZIYDAN SADO

CHOʻLPONNI YOQLAGAN MUTARJIM

Oʻtgan asrning 20–30-yillarida oʻzbek milliy matbuoti, tarjima maktabi, teatr tanqidchiligi va maʼrifat maydonida oʻchmas iz qoldirgan yorqin siymolardan biri Sanjar Siddiqdir. Ism-sharifi Bosit Siddiqov boʻlgan qahramonimiz oddiy tarjimon emas, Oʻzbekistonda birinchi boʻlib tarjima nazariyasiga bagʻishlangan “Adabiy tarjima sanʼati” risolasini yozib, tarjimashunoslik poydevorini qoʻygan chin ziyoli edi.

Uningcha, tarjima bir matnni boshqa tilga oʻgirish emas, balki millatning dunyo bilan suhbatini yoʻlga qoʻyish, til imkoniyatlarini kengaytirish, estetik didni boyitish, fikrni tarbiyalash hisoblanadi. Shu maʼnoda, u rus, olmon, ingliz, fors tillaridan qator asarlarni oʻzbek tiliga mohirona tarjima qildi, xorij pyesalarini oʻgʻirishda tomoshabinning ruhiyatiga taʼsir qiladigan jonli tilni yaratishga intildi. Shu sababli, Lope de Vega, Gogol, Shiller, Pogodinning asarlari Sanjar Siddiq tarjimasida yillar davomida oʻzbek sahnasida yashadi.

Uning matbuotdagi faoliyati ham jamiyatni uygʻotish ishining bir qismi edi. “Qizil bayroq”, “Turkiston”, “Qizil Oʻzbekiston”, “Ozod Buxoro” gazetalarida, “Yer yuzi”, “Guliston”, “Mushtum” singari jurnallarda xizmat qilib, publitsistikada turli taxalluslardan foydalandi: “Gazetchi”, “Toshkentlik”, “Koʻz-quloq”, “Bir kishi”,

“Kitobxon”, “Kaltadum” va boshqalar. Bular shunchaki niqob emas, bir ijodkorning turli yoʻnalishlarda ishlay olishini, jamiyatning turli masalalariga mos ohang topishini bildirardi, demak, u bir mavzuga qamalib qolmay, hayotning oʻziga qarab yozgan.

Sanjar Siddiqning publitsistikasi biryoqlama shiorbozlikdan yiroq boʻlib, u muammoni yuzaki koʻrsatishdan koʻra, ildizini ochishga intildi. Oʻquvchini shunchaki xabardor qilish emas, oʻylantirish, chogʻishtirish, xulosa chiqarishga undash uning uslubi edi.

Masalan, “Bugungi Buxoro” maqolasida u shaharning koʻchalari, bozorlar, oddiy insonlar hayotini tasvirlar ekan, bir vaqtning oʻzida, bekorchilik, oʻgʻrilik, tartibsizlik, ruhiy xotirjamlikning buzilishi kabi ijtimoiy illatlarni ham koʻrsatadi. Bunday kuzatuvchi nigoh tizimga yoqmasdi, chunki u rasman chizilgan “ideal manzara”ning ortidagi haqiqatni koʻrsatib qoʻyardi. Shu yerda qalamning asl qudrati ayon boʻladi: u koʻzga koʻrinmaydigan ziddiyatlarni koʻrsatadi, odamni oʻz vijdoni bilan yuzlashtiradi, jamiyatni oʻzini baholashga majbur qiladi.

Uning inson sifatidagi jasorati, ayniqsa, Choʻlponning “Hamlet” tarjimasida atrofida kechgan bahslarda yaqqol koʻrindi. 1935-yili bu asar Choʻlpon tarjimasida sahnaga qoʻyilgach, 1936-yili keskin hujumga uchradi va haqoratga evrilgan tanqidlar paydo boʻldi. Shunday paytda Sanjar Siddiq “Tuhmatga oʻxshagan tanqid” maqolasini eʼlon qilib,

dirgan. Shu tariqa, Hismatovning taʼlimdan mehnat faoliyatiga kirib kelgan yillari Turkistonda hokimiyat tizimlari tez-tez almashib, kechagina tashkil etilgan jamoat birlashmalari qisqa vaqt ichida qayta nomlanib yoki boshqa tuzilmalar tarkibiga qoʻshilib ketayotgan beqaror davr bilan aloqador.

Hikmatulla Hismatov 1913-yildan maktablar taʼminoti uchun, shuningdek, musulmon qismlarda xizmat qilgan askarlarga moddiy yordam yigʻish maqsadida oʻtkazilgan koʻngilochar spektakllarda ishtirok etgan, 1918–1920-yillarda xizmat vazifasi bilan Xoʻjand, Qoʻqon, Buxoroda ishlagan. Mehnat faoliyati mobaynida bir muddat davlat muassasalarida tilmochi va tashkilotchilik ishlarini bajaradi.

Koʻrsatmalaridan maʼlum boʻlishicha, mashhur “mardikor olish kampaniyasi”da 1916-yili front orti ishlariga safarbar etilgan ishchilar tarkibida bir eshelonda tilmochi qilgan, soʻngra davlat muassasalarida xizmat vazifasini davom ettirgan. Hujjatlarda 1918-yildan kompartiya safiga qabul qilangani ham qayd etiladi. Keyingi yillarda savdo va xoʻjalik tizimida ishlab, qadam-baqadam rahbarlik lavozimlariga koʻtarilgani qahramonimiz tarjimaiy holid alohida koʻrsatiladi.

1930-yillar boshida respublikada qorakoʻlchilik sovxozlarini tashkil etish va xoʻjalik tizimini qayta qurish bilan bogʻliq keng koʻlamli tadbirlar amalga oshirilib, Hikmatulla Hismatov ana shu jarayonlarda xoʻjalik va savdo sohasiga daxldor vazifalarda ishlaydi.

Arxiv hujjatlarida saqlangan arizasida qahramonimiz 1923-1925-yillardan soʻng aksilinqilobiy millatchilik tashkilotlari mavjudligidan

bexabarligini qayd etadi. 1931-yilda qorakoʻl sovxozlarini tashkil etish bilan bogʻliq tadbirlar davomida Fayzulla Xoʻjayev rahbarlik qilgan idoralardan olingan koʻrsatmalar asosida ish yuritgani, keyinchalik aynan shu xizmat faoliyati tergov materiallarida “aksilinqilobiy tashkilotga aloqadorlik” sifatida talqin qilinganini yozadi. Arizada tashkilotning tarkibi va aʼzolari haqida aniq maʼlumotga ega emasligi, oʻzi bajargan ishlar uchun masʼuliyatni zimmasiga olishga tayyor ekanini bildiradi. Bu hujjat tergov jarayonida olingan koʻrsatmalar va ayblovlarni rasmiylashtirish amaliyoti qanday kechganini aks ettiruvchi muhim manbalardan biridir. 1937-yilga kelib, ayni shu xizmat aloqalari va xoʻjalik ishlarida yuzaga kelgan muammolar uning taqdirida hal qiluvchi omilga aylandi.

1937-yil dekabrda tayyorlangan ayblov xulosasida Hikmatulla Hismatovga aksilinqilobiy millatchilik tashkilotiga aʼzolik, Fayzulla Xoʻjayev boshchiligidagi guruh topshiriqlari boʻyicha “Oʻzbekqorakoʻl” tizimida qoʻporuvchilik ishlarini olib borish, 1931–1932-yillarda qorakoʻl qoʻylari talafotiga – 250 ming bosh qorakoʻl qoʻyning oʻlimiga sabab boʻlish, shuningdek, “Oʻzbekbirlashuv” tarmoqlari orqali savdo sohasida zararli ishlar amalga oshirish (hujjatlarda 1934–1937-yillarda savdo-xoʻjalik faoliyatida xarajatlar sunʼiy ravishda oshirilib, davlatga 12-14 million rubl miqdorida zarar yetkazilgan) tarzida bir qator ayblovlar qoʻyildi.

Ayblov hujjatlarida iqtisodiy sohadagi qiyinchiliklar, savdo tizimidagi kamchilik va xoʻjalikdagi muammolar alohida shaxslar faoliyati natijasi sifatida talqin qilingani koʻrinadi. Oʻsha yillarda iqtisodiy rejalarining keskinligi, topshiriqlarning tez-tez oʻzgarishi va joylardagi tashkiliy chigalliklar koʻplab xoʻjaliklarda muammolar keltirib chiqargan. Biroq 1937-yilgi siyosiy muhitda bunday qiyinchiliklar koʻpincha xoʻjalik tizimining umumiy muammolari sifatida emas, balki “qoʻporuvchilik” va “zararkunandalik” ayblovlari bilan izohlanib, tergov ishlari uchun asos sifatida qoʻllangan. Ana shu amaliyot doirasida iqtisodiy sohada yuzaga kelgan zilʼircha kamchilik ham xizmatchilarga nisbatan jinoiy ish qoʻzgʻatishga

sabab qilib koʻrsatilgan.

1937-yil 26-dekabrda OʻzSSR Ichki ishlar xalq komissari Apresyan taqdim etgan ayblov xulosasi SSSR prokurori A.Vishinskiy tomonidan tasdiqlanib, ish qisqa muddat ichida sudga oshiriladi. Qahramonimiz OʻzSSR Jinoyat kodeksining 58-, 63-, 64- va 67-moddalari boʻyicha aybdor deb topilib, 1938-yil 4-oktyabrda Toshkent shahrida SSSR Oliy sudi harbiy kollegiyasining koʻchma sud majlisi qarori bilan otuvga hukm qilinadi.

Qatagʻon yillarining eng shafqatsiz jihatlaridan biri shunda ediki, jazo koʻp holda faqat ayblangan shaxs bilan cheklanib qolmas, uning yaqinlari ham aybsiz holda taʼqib girdobiga tortilib ketardi. Tergov hujjatlari va arxiv materiallari bu davrda oilalar butunlay parchalangani, ayollar va bolalarning ham qamalangani koʻrsatadi. Hikmatulla Hismatovning turmush oʻrtogʻi Mariya Hismatova ham ana shunday taqdimni boshidan kechirdi. Mariya 1937-yil 30-oktyabrda hibsga olinib, 1939-yil 8-fevralgacha qamoqda saqlanadi. Bu bir yildan ortiq vaqt kechagina umr yoʻldoshidan ayrilgan ayol uchun yana bir tahqir, kamsitish, xoʻrlilik edi. Garchi hujjatlarda bu davr qisqa sanalar bilan qayd etilgan boʻlsa-da, buning ortida bir oilaning soʻngsiz iztiroblari, mohiyatan esa barchaning yurak-yuragiga botmish sanchiq, ogʻriqlari yetarlicha bor... Mariya Hismatova Andijon viloyati Marhamat rayoni Russkoye qishlogʻida yashab, rayon kasalxonasida 1964-yil 17-sentyabrgacha faoliyat koʻrsatgan.

Mashʼum 4-oktyabr fojiasidan yigirma yil oʻtib, 1958-yil 26-martda Hikmatulla Hismatov ishi qayta koʻrib chiqilib, u rasman reabilitatsiya qilindi. Biroq kechikkan bu qaror parchalangan oila, koʻrilgan ming bir azob va yoʻqotilgan hayotni qaytarib bera olmasdi. U faqat tarix sahifalaridagi nohaq ayblovlar bekor qilinganini tasdiqlovchi hujjat sifatida qoldi.

Hikmat shuki, ajdodlar xotirasini asrab-avaylash, ular kechmishidan saboq chiqarish har bir avlodning muqaddas burchi va masʼuliyatidir.

Rustambek SHAMSUTDINOV,
tarix fanlari doktori,
professor

AZIZ XOTIRA



QATAGʻON QURBONLARI

(Davomi. Boshlanishi oʻtgan sonlarda).

Muhiddinxoʻja Shamsixoʻjayev – 1890-yili Toshkent shahrida tugʻilgan. Shahar bogʻdorchilik uyushmasida boʻlim boshligʻi boʻlib ishlagan. 1929-yil 6-noyabrda qamoqqa olingan.

Munavvar qori Abdurashidxonovning gʻoyalarini targʻib qilishda, xususan, paxta ekishni toʻxtatish zarurligi toʻgʻrisida va sovetlarga qarshi targʻibot olib borishda ayblangan. RSFSR Jinoyat kodeksining 58-moddasi 10-bandi bilan 1931-yil 25-apreldan 5 yil muddatga konslagerga hukm etilgan.

Shorasul Zunnunov – 1900-yili Toshkentda tugʻilgan. Maktabda dars bergan. 1929-yil 6-noyabrda qamoqqa olingan. U “Milliy istiqlol” tashkiloti faoliyatiga monand millatchilik mafkurasini tarqatganlikda aybdor deb topilgan. RSFSR Jinoyat kodeksining 2-qismi 58-moddasi 10-bandiga asosan OGPU kollegiyasining 1931-yil 25-apreldagi qarori bilan 10 yil muddatga konslagerga hukm etilgan. 1989-yili 28-martda reabilitatsiya qilingan.

Gʻafurjon Musaxonov – 1893-yili Toshkentda tugʻilgan. “Oʻzbekiston” nomli qandolatchilik shirkati boshqaruvchisi boʻlgan. 1929-yil 6-noyabrda qamoqqa olingan. Toshkentdagi “Uchlik” tashkiloti aʼzolidagi, “Milliy istiqlol” faoliyatiga rahbarlik qilishda ayblangan. 1931-yil 25-aprelda OGPU kollegiyasining qarori bilan otuvga hukm etilgan. Ish qayta koʻrilib, oʻlim jazosi 10 yillik surgun bilan almashtirilgan.

Ibodqori Umarxoʻjayev – 1879-yili Toshkentda tugʻilgan. 1919-yilgacha gazlama sotish bilan shugʻullangan. 1919–1921-yillari sovet idoralarida xizmat qilgan. 1930-yil 3-noyabrda hibsga olingan. 1919-yili Xalq maorifi boʻlimida, Ulugʻ-bek nomli maktabda ish yurituvchi mudir lavozimida ishlagan. “Milliy ittihad” tashkilotiga moliyaviy yordam berganlikda ayblanib, 1931-yil 3-noyabrda OGPU Siyosiy vakilligi orqali 3 yil muddatga Gʻarbiy Sibirga surgun etilgan.

Otaxon Nazirxonov – 1887-yili Toshkentda tugʻilgan. Hibsga olingunga qadar Kommunal bank hisobchisi boʻlib ishlagan. Oktyabr toʻntarishiga qadar yollanma ishchi, keyinchalik yangi iqtisodiy siyosat davrida uch yil savdo bilan shugʻullangan. 1938-yil 23-fevralda hibsga olingan.

OʻzSSR Ichki ishlar xalq komissarligining 1938-yil 5-apreldagi qarorida “Ittihad va taraqqiy” hamda “Milliy ittihad” tashkilotiga aʼzolikda va sovetlarga qarshi targʻibot olib borganlikda ayblanib, 10 yil mehnat-tuzatuv lageriga hukm qilingan. U 1962-yil 20-iyunda reabilitatsiya qilingan.

Usmonjon Sarkorov – 1897-yili Andijon shahrida tugʻilgan. NKVD Andijon sektori yordamchi xoʻjaligida ishlagan. 1922-yilda “Milliy ittihad” tashkilotiga aʼzo boʻlgan. Tashkilotning hududiy boʻlimi faollari qatorida yigʻinlarda doimiy qatnashgan. 1930-yili sovet organlari tomonidan hibsga olinib, qamoq jazosiga hukm qilingan.

Azizbek MAHKAMOV,
tarix fanlari boʻyicha
falsafa doktori

Nigoraxon AKBAROVA,
muzey ilmiy xodimasi

(Davomi kelgusi sonda).



aybnomalar... Aybni boʻyniga qoʻyish talablari qancha kuchaymasin, Sanjar Siddiqning qatʼiyati sinmadi. Qoʻyilgan ayblarning barchasi rad etildi, biroq 1938-yili yopiq “uchlik” sudi otuv hukmini chiqardi. Tarjimon yovga yolgʻiz nishon emasdi, kitoblari ham nishonga olindi...


1956-yilda Sanjar Siddiq ishi qayta koʻrib chiqilib, oqlandi. Biroq “oqlov” hayotni qaytarmaydi, yoʻqotilgan yillarni tiklamaydi, yoqilgan kitoblarning oʻrnini toʻldirib bermaydi, lekin u jamiyat vijdoniga bir savol tashlaydi: adolat kechiksa, uning bahosi qanchaga tushadi? Shu savol bugun ham bizni hushyor tutishi kerak, chunki tarixni eslashning maʼnosi ham shunda – kechikkan adolatning achchiq taʼmini unutmashlik, uni takrorlamaslikdadir.

Boʻri QODIROV,
Alisher ATAYEV,
Ijtimoiy-maʼnaviy tadqiqotlar
instituti ilmiy xodimlari



Navqiron davra

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi xayrli ishga qo'l urdi, bundan besh-o'n yillar oldin "Birinchi kitobim" ruknida to'plamlari chiqqan ijodkorlarimizning navbatdagi kitobini nashr ettirdi – demak, bir paytlar katta umidlar bilan ilk kitobchalari o'quvchilarga taqdim etilgan yosh ijodkorlar ayrim porlab chiqqan futbolchilarimizga o'xshab yo'qolib yoki shoir aytganidek, iste'dodi so'nib qolmabdi.



Orada kimdir "Mard o'g'lon", kimdir Zulfiya nomidagi davlat mukofotlari bilan taqdirlanibdi, yana kimdir oliy tahsilni yakunlagan bo'lsa, ilmiy ish yoqlaganlari ham bor, albatta, ijodni to'xtatmagan holda.

Turkum nomi – "So'zmunchoq". "Adabiyotimizda o'sib kelayotgan ko'rkam nihollarning bog'ga aylangulik bo'yi bor. Bu bog'larning hosili mo'l bo'lishini niyat qilib, bir turkum kitoblarni "So'zmunchoq" rukni ostida nashr etishni reja qildik", deyiladi to'plamlarning kirish so'zida.

Mana, qo'lmda munchoqday terilgan kitoblari. Muqovasi chiroyli, did bilan ishlangan. Tashqi ko'rinishi havas qilgulik, xo'p, ichki mazmuni qanday ekan? Keling, yaxshi she'rlardan ayrim namunalar keltiraylik, toki, ularga o'zingiz baho berishingizga imkon bo'lsin.

Bobur Elmurodning "Tajohul ul-orif" nomli kitobiga O'zbekiston Qahramoni, xalq shoiri Abdulla Oripov tomonidan yozilgan so'zboshi berilgan e'tibori. "Ukamiz Bobur Elmurodning she'rlarini o'qib juda ta'sirlandim. Goho shoirning bitta she'ri muvaffaqiyatli chiqib, qolganlari susayib ketgan bo'lishi mumkin. Shoir ukamizning yozganlari hozircha unaqqa emas". Katta gap. Albatta, endi mana shu yuksak ishonchni bundan keyin ham munosib oqlash kerak.

Jon ham bitta ko'chmanchi,
Qololmas ekan tanda.
So'zga ko'chib o'tarkan
Vujuding keksayganda.
Shunday dedi xasta chol,
Ko'rdim: soqoli qorday.
Jon qolmagan tanida,
So'zlarida jon borday...

Oxir yer tanga bo'ldi,
Bo'ying yetgan zamoni.
Senga qay taraf tushdi?
Menga sen yo'q tomoni.

Ovozimni yozib oldi bir kishi,
Suratkash suratga oldi turishim.
Yaxshiyam ko'rinish turmas ularga
Seni ich-ichimdan yaxshi ko'rishim...
Hali manzilingni aytmadigandurust,
Aytmadim, o'zimning qayda turishim.
Ishqilib, Xudoga ayon bo'lsin-da,
Seni ich-ichimdan yaxshi ko'rishim.

Boburning yana bir ajoyib she'ri "Bitta cholni ko'rdim sahroda" deb boshlanadi. Chol peshonasi terlab, qum ichidan yo'qolgan tangasini qidirmoqda. Kun ham botib boryaptiki, tanga topila qolmaydi. Illosiz qolgan chol ko'kka qarab zorlanadi: "E, Xudo, bor bo'lsang, tangamni topib ber!" Hayhot! "Nahot hozir tangasin topmay, Yaratgandan yuz o'g'irscha chol?" Uning holini bayon etayotgan shoir qalbiga tahlika tushadi:

Qo'rqib ketdim, axir keksa jon,
Yuragidan o'tdi bir tuyg'u.
Bitta tanga otdim chol tomon,
Seni yo'q deb o'yamasin u.
Chuqur mazmunga ega she'r.

Nargiza Asadovanning kitobi "Qushlar salovati" deb nomlangan. Undagi "Orzu" nomli mana bu to'rtlikni o'qing:

Yerni bekalom suyg'an
Chumoli-la sirlashsam.
Vatan tuprog'i-la men
O'lmasimdan birlashsam.
Yaxshi topilma.

Iroda Umarovanning "Garashalik ko'ngil" degan to'plamida ham yaxshi she'rlar bor. Garasha ko'zimga issiq joy. Taniqli

shoir, ustoz Sa'dulla Hakim bilan besh-olti qatla bu qishloqqa borganman. Bunday so'lim tabiatli joydan shoir chiqmasligi mumkin emasday tuyulgan.

Jannatga ketaman bir kuni, nasib,
Do'zaxdan do'zaxga tusharmi odam?

Burda-burda kulga termulgan
Ko'zlarimda o'zga qayg'u bor.
Oh, azizim,
Meni kechirgin,
Yonmaydigan maktublar yubor.

Gullar ham so'ladi, xazon chog'i bor,
Illo, urug'larin gullamog'i bor,
Borgan joylarida o'zin bog'i bor,
Otam bog'lariga oralatmas kuz,
Sakkiz dona bahor – sakkiz nafar qiz.

Xabar olmasizmi, axir qachondir
Kimningdir ko'ngliga ekan umiddan?

Sayfiddin Okanovning "Toshloq ko'chalar" kitobidan:
Men yurar yo'llarni loylaydi dunyo,
Har bosgan izimni poylaydi dunyo.
Dunyoga sig'magan tuyg'ularimni
Ko'ksimga qandayin joylaydi dunyo?

Men buloqman.
Ko'zlarimni berkitding.
Rahmat senga!
Yaxshiroq joyda ko'z ochsin dedingmi?

Nahot dunyo toshdan bo'lgan jam,
Topolmayman, nahot bir qalbdosh?
Boqqim kelmas toshoynaga ham,
Bo'y ko'rsatar unda ham bir tosh.

Adabiyot ixlosmandlari "So'zmunchoq" ruknida chop etilgan Yulduz O'rmonovanning "Axtarim" va Anvar Botirning "Uch", Bahodir Bahromning "Gulimoh" va Navoiylik Alisherning "Burch" to'plamlaridan ham diltortar satrlar topa oladilar, deb umid qilamiz.

Darvoqe, to'plamlar bilan tanisha turib, mualliflarning yoshi bilan qiziqdim, ular ayni navqiron pallada – 30-40 yoshlarda. Bugungi adabiy davrlarda ularni negadir yosh ijodkor sanashga o'rganib qolganmiz. Holbuki, bu yoshdagi inson ijodkor va eng muhimi, shaxs sifatida to'la shakllanib bo'ladi. Shonli tariximizga nazar tashlasak, qanchadan qancha buyuk ajdodlarimiz umrining bu pallasida yetuk alloma sifatida kamolotga yetgani va shuhrat qozonganiga guvoh bo'lamiz.

Balki aksar shoirlarimiz faqat she'r bilan mashg'ul bo'lib, ularda ijtimoiy faollik ozligidan, qalbi, fikri uyg'oq ijodkor sifatida turli ommaviy axborot vositalarida dolzarb mavzularni dadil olib chiqmayotganidan ko'zimizga yosh ko'rinar? Ehtimol, milliy adabiyotimiz, ayniqsa, zamonaviy o'zbek she'riyati iste'dodlarga boyligidadir ularga e'tiborning turg'unligi? Keyingi gumonda bo'laylik.

Bobur Mirzo lutf qiladi:
She'ring eshitur fikrini Bobur qildi,
Ne fikri xush-u yaxshi tasavvur qildi.
Ko'zini yorug' ayladi savodi birla,
Mazmuni bila quloqni purdur qildi.

Siz ham bu she'rlarni o'qimoqni xush fikr, o'qib esa yaxshi tasavvur qilsangiz, umidimiz borki, bu kitoblari bezagi bilan ko'zingizni yorug' aylab, mazmuni bilan tafakkuringizga durlar baxsh etsa!

Ikrom ISKANDAR

TARMOQLARDA NIMA GAP?

“RO‘ZAMISIZ, KO‘ZAMI?”

Muborak Ramazon oyi kirib kelishi dillarga quvonch bag'ishlaydi. Ammo shu g'animat kunlarni ko'ngildagiday o'tkazish hammaning ham qo'lidan kelavermaydi. Masalan...

Ro'za boshqa oylarga qaraganda kam yeb, kam ichishni talab etadi. Ixtiyoriy och qolish orqali ham jismni, ham nafsni tarbiyalash ko'zda tutiladi. Ibratli jihati, majburlikdan, yo'qchilikdan och qolayotganlar holini ham his qiladi odam. Dilda shukrona va saxovat tuyg'ulari oshadi. Lekin ayrimlar bu oyda boshqa vaqtda yemagan tansiq taomlar, yemaklarga zo'r beradi. Kunduzi och yurgani bilan, saharlik va iftorlikda me'yorni unutib qo'yadi. Tibbiyotda birdan ko'p ovqat yeyish yo suyuqlik ichish og'ir oqibatlariga olib kelishi ko'p aytiladi.

Ro'zadorlarga iftorlik berish maqtalgan amallardan. Lekin hech qachon isrof qilib savob olinmaydi. Ehson, avvalo, muhtojlarga tarqatiladi. Ammo ba'zi iftorliklar bir to'yga o'xshaydi. Dasturxon uchun maxsus taomlar, shirinliklar tortiladi. Ammo buni qayerdan olganini birov bilmaydi. Bu ibodat emas, bid'atga aylanib ketadi.

Halol rizqdan yeb-ichish, isrof qilinmasa, Qur'oni Karimda ham e'tirof etilgan. Biroq dasturxonini rasmga, videoga olib ijtimoiy tarmoqlarga joylash, iftorlik uchun dong'i ketgan kafe-restoranlarga borib, jonli efirlar uzatish sof diniy qarashlarga ham, oddiy insoniy madaniyatga ham to'g'ri kelmaydi. Zero, hammaning sharoiti har xil. Ramazon kimo'zarga iftorlik qiladigan musobaqa oyi emas.

Yana bir gap. Hurmatli aka-ukalarimiz iftorlikka, taroveh namoziga shaxsiy ulovlarida boradi. Bu esa joylarda uzoqqa cho'zilgan tirbandlik hosil qilib, mashinalar harakatiga xalaqit beradi. Namozdan chiqib yo'l talashayotganlarni ko'rib ba'zan yoqa ushlaydi odam. Axir, masjidlarga jamoat transportida, yaqinroqdagilar piyoda, velosipedda borsa ham bo'ladi-ku.

Ramazon ro'zasi odamlarning gap-so'zi uchun emas, xolis Alloh roziligi uchun tutiladi. Uning tartibi



ham shariatda belgilab berilgan. Jumladan, bemorlik, musofirlik va boshqa sabablarga ko'ra ayrim toifalarga ro'za farz qilinmaydi. Shuning uchun ro'za tutmagan odamni har xil kinoya yo hazil bilan izza qilish, ko'ringan odamdan "Ro'zamisiz, ko'zami?" deb so'rash mutlaq odobsizlik.

Hikoyat:

"Uch-to'rt yigit Ramazon oyida bir mo'ysafid otaxonning odamlar ko'zidan pana joyda taom yeyayotganini ko'rib qolishibdi:

– Iye, otaxon! Siz ro'zador emasmisiz?

Otaxon:

– Ro'zadorman. Faqat suv ichib, taom yeyapman, xolos.

Yigitlar qah-qah otib kulib yuborishibdi:

– Bu nima deganingiz?

Otaxon debdi:

– Kimsaga yomon ko'z bilan qaramayman, birovni mazax qilmayman, g'iybat qilmayman, hech kimning ko'ngliga ozor yetkazmayman, odamlar bilan xunuk muomala qilmayman, birovning moliga ko'z olaytirmayman, lekin... ming afsuski, oshqozonim kasal, shu bois me'damni ro'zador qilolmayapman".

Otabek RAHIM
Facebook

TANLOV

Navoiy kon-metallurgiya kombinati ma'muriyati va kasaba uyushmasi kengashi tashabbusi bilan ishchi-xodimlar o'rtasida "Eng yaxshi kitobxon" tanlovi o'tkazilib, g'oliblar munosib taqdirlandi.

Tanlov davomida o'zbek va jahon adabiyotining sara asarlari, xususan, "Padarkush" (Mahmudxo'ja Behbudiy), "O'tkan kunlar" (Abdulla Qodiriy), "Yulduzli tunlar" (Pirimqul Qodirov), "Jamil" (Chingiz Aytmatov), "Mening Dog'istonim" (Rasul Hamzatov), "Choliqushi" (Rashod Nuri Guntekin) kitoblari yuzlab ishtirokchilar tomonidan ishtiyok bilan mutolaa qilindi.

– Bu ezgu ishlar jamiyatimizda kitobxonlikni rivojlantirishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir. Tanlovning yakuniy bosqichida kombinatimiz bo'linmalaridan saralangan 60 nafarga yaqin eng faol kitobxon bellashdi. Ularning bilimi va faolligi sezilib turdi, – deydi O'zbekiston Qahramoni Farhod Soyibov.



Tanlovda Markaziy kon boshqarmasi 2-gidrometallurgiya zavodi chilangari Sherbek Shaymatov 1-o'rinni, "Qizilqum" kon boshqarmasi xodimi Mavluda Tosheva 2-o'rinni, Shimoliy kon boshqarmasi 3-gidrometallurgiya zavodi chilangari Zavqiddin Imomov 3-o'rinni qo'lga kiritdi. G'oliblar va faol qatnashgan ishtirokchilar maxsus statuetka hamda kasaba uyushmasi kengashi tomonidan qimmatbaho sovg'alarga taqdirlandi.

Biz ko'pincha konchilarimizni Farhodga qiyos etamiz, bugun Shirinlar ham kon-metallurgiya sohasida faoliyat yuritmoqda. Zamonamiz Farhod-u Shirinlarining faol kitobxon bo'lib, hazrat Navoiy tasvirlagan komillikka qadam-baqadam yaqinlasha borishiga ishonchimiz bor.

Azamat ZARIPOV,
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi.



Bosh muharrir:

Iqbol MIRZO

Muallif fikri tahririyat fikri bilan mos kelmasligi mumkin.

Tahririyatga yuborilgan maqolalar muallifga qaytarilmaydi va ular yuzasidan izoh berilmaydi.

Gazeta 2023-yil 26-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 195115 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Mas'ul kotib: Shuhrat Azizov

Navbatchi muharrir:
Otabek Bakirov

Адади – 18 586

Шундан:

Кирилл ёзувида – 6 628
Лотин ёзувида – 11 958
Медиа кузатувчилар – 81 433
Буюртма: Г – 239
Ҳажми: 4 босма табоқ, А2.
Нашр кўрсаткичи – 222.
Ташкилотлар учун – 223.
1 2 3 4 5 6

Сahifalovchilar:

Erkin Yodgorov
Nigora Tosheva



Manzili:

Toshkent shahri,
Shayxontohur tumani,
Navoiy ko'chasi, 69-uy

Telefonlar:

Qabulxona: (71) 203-24-20
Devonxona: (97) 745-03-69
jadidgzt@mail.ru (71) 203-24-17
Jadid_gazetasi@exat.uz

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi.

Bosmaxona manzili:

Toshkent shahri,
Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Bosishga topshirish vaqti: 21:00
Bosishga topshirildi: 21:00

Sotuvda narxi erkin.



www.jadid.uz

Muassislar:



O'ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI



RESPUBLIKA MA'NAVİYAT VA MA'RIFAT MARKAZI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI



MILLIY MASS-MEDIANI QO'LLAB-QUVVATLASH VA RIVOJLANTIRISH JAMOAAT FONDI



"SHAHIDLAR XOTIRASI" JAMOAAT FONDI